O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI


URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Bekchanov Maqsud Yuldashevichning


5230100-“ Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

# MILLIY IQTISODIYOT RIVOJIDA SANOAT KORXONALARI KLASTERLARINING AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: B.Ollanazarov

Urganch 2016 yil

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZ VA IQTISODIYOT FAKULTETI

“IQTISODIYOT” kafedrasi

# MILLIY IQTISODIYOT RIVOJIDA SANOAT KORXONALARI KLASTERLARINING AHAMIYATI

**Bajaruvchi:** Bekchanov Maqsud Yuldashevich

**Rahbar:** Ollanazarov Bekmurod Davlatmurodovich

Urganch shahri

2016-yil

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**“IQTISODIYOT” kafedrasi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH**

**BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR REJASI:**

1. Talaba Bekchanov Maqsud Yuldashevichga universitet rektorining 2015 yil ñ10ò noyabrdagi Universitet rektorining 203 - T&1 - sonli buyrugôi bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun ñ**Milliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyati**ò mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan ñTurizmò kafedrasi katta oôqituvchisi, Ollanazarov B.D. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roôyxati, 9 ta jadval, 1 ta rasm va 8 ta chizmadan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun maôlumotlar Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlaridan, respublikamizning moliyaviy-iqtisodiy koôrsatkichlaridan hamda statistik toôplamlardan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari hamda sanoat korxonalari klasterlarini shakllantirish boôyicha meôyoriy xujjatlar va jadvallar ilova qilinadi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali**

| № | Bajarilgan ishning mazmuni | Bajarish muddati |
|---|---|---|
| 1. | BMI mavzusi va obyektini tanlash | 07.12.15 |
| 2. | Mavzu boόyicha maόlumotlarni toόplash | 28.12.15 |
| 3. | Oόquv-uslubiy manbalarni oόrganish | 05.01.16 |
| 4. | BMI rejasini tuzish | 09.01.16 |
| 5. | 1-bobni tayyorlash | 23.01.16 |
| 6. | 2-bobni tayyorlash | 06.02.16 |
| 7. | Xulosa va takliflar qismini tayyorlash | 27.02.16 |
| 8. | BMI taqdimotini tayyorlash | 07.04.16 |
| 9. | Dastlabki himoyaga tayyorgarlik | 14.04.16 |
| 10. | Dastlabki himoya | 02.05.16 |

**Bitiruv malakaviy ish rahbari: __________ Ollanazarov B.D.**

**Bajaruvchi talaba: _______ Bekchanov Maqsud Yuldashevich**

**2016 yil "___" _________**

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 201__ yil ñ___ò _________da tasdiqlandi (__-sonli bayonnoma)

**Kafedra mudiri: __________ dots. Matyaqubov U.R.**

## BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

**Talaba:** Bekchanov Maqsud Yuldashevich.

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi: ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyatiò.**

**Bitiruv malakaviy ish xajmi:** 78 bet.

**Tushuntirish qismi:** Bitiruv malakaviy ishning tushuntirish qismida dastlab kirish qismi berilgan. Keyin 2 ta bob, 6 ta paragrafdan iborat asosiy qismda mavzuning mohiyati ochib berilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishning tushuntirish qismi mavzu boòyicha xulosa va takliflar bilan yakunlangan.

**Ilovalar soni:**

**Mavzuning dolzarbligi**: Mintaqalar raqobatbardoshligi nazariyasi endigina shakllanayotganligi sababli uning mazmuni, tushunchasi bo`yicha olimlar o`rtasida turli qarashlar va taòriflar mavjud. Fikrimizcha mintaqa raqobatbardoshligi - uning raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalangan holda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishni tashkil etish asosida aholi turmush darajasini oshirishdan iborat. Mintaqalar o`rtasidagi raqobatbardoshlik jarayoni mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar o`rtasidagi aniq bir ko`rinishga ega bo`lmaydi. Ushbu jarayon yetarlicha uzoq va murakkab bo`lib, mintaqalarning raqobatbardoshligi, birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilgan holda har bir hududning raqobat afzalliklaridan samarali foydalanishga qaratilgandir. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish ularning uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasining asosini tashkil qiladi.

**Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi:** Bitiruvchi universitetdagi 4 yillik taòlim jarayonida nazariy bilim olib, malakaviy amaliyotlar davrida ularni amaliyot bilan bogòlab, mukammal oòrgangan.

**Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari:** Talaba bitiruv malakaviy ishini bajarish boòyicha berilgan barcha topshiriqlarni mustaqil bajardi, tijorat banklari faoliyatiga doir maxsus adabiyotlarni talqin qildi, ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalarni oòrgandi. U bilimga intiluvchan, tirishqoq va intizomli talaba.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari:** Milliy iqtisodiyot rivojlantirishda sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyati Mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda va innovatsion faollikni klasterlar orqali ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Minyaqa raqobatbardoshliligii oshirish bo´yicha berilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar klasterlar orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkonini berishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi:** Bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan talablar to'liq bajarilgan.

**Bitiruv malakaviy ish rahbari: __________ Ollanazarov B.D.**

**2016 yil "___" _________**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**5230100-“Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” ta’lim yo’nalishi**

**Bekchanov Maqsud Yuldashevichning**

**bitiruv malakaviy ishiga**

# T A Q R I Z

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi:** ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoati korxonalari klasterlarining ahamiyatiò.

**Bitiruv malakaviy ishning hajmi:** 15435 soǒzdan iborat;

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 76 sahifadan iborat;

b) ilovalar soni:

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:** Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, raqobat muhitini shakllantirish, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalari klasterlarini shakllantirish mamlakat hamda uning mintaqalarida sanoat salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taǒkidlaganlaridek, ñMamlakatning raqobatbardoshligini taǒminlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o`zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish lozim».

**Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati:** Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda joriy qilinishi yoritilgan. Ishda belgilangan vazifalar toǒliq bajarilgan.

**Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovasiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi:** Ishlab chiqarish bilan innovatsion korporativ hamkorlikni amalga oshirish borasida ñIqtisodiyotò kafedrasi qoshida tuzilgan innovatsion guruhlarda kafedra ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar ilmiy-texnologik muammolarini oǒrganish boǒyicha rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi:** Bitiruv malakaviy ishi UrDU ñIqtisodiyotò kafedrasi majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan (2016 yil ñ___ò _________dagi ___-sonli bayonnoma).

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari:** Bitiruv malakaviy ish natijalarida olingan ilmiy gŏoyalar va amaliy natijalar ñRaqobat siyosatiò, ñKorxona iqtisodiyotiò, òInstitutsional iqtisidiyotò fanlarida foydalanish uchun kafedraga topshirildi.

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar:** Bitiruv malakaviy ishda O´zbekiston Respublikasida faoliyat maxsus-industrial hududlar va ulardagi sanoat korxonalari faoliyati tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo´lar edi. Ammo, ushbu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini, nazariy ahamiyati va ilmiy saviyasini aslo pasaytirmaydi.

**Taqrizchi: __________ "Kasb ta`limi" kafedrasi**

**professori, i.f.d. S.K.Salayev**

**2016 yil "___" _________**

**Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari**

| № | Baholanadigan bo’limlar | Eng yuqori ko’rsatkich ball hisobida |
|---|---|---|
| 1 | BMIning ñKirishò qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 |
| 3 | ñXulosaò qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 |
| 8 | BMI mavzusi boĉyicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda maôruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 |

* **eslatma:** har bir kafedraning xususiyatlari eêtiborga olingan holda baholash mezonlariga oôzgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti 5230100-ñIqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)ò taðlim yoðnalishining bitiruvchisi Bekchanov Maqsud Yuldashevichning ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyatiò mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAKning 2016 yil ñ___ò _________dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi oðzlashtirish koðrsatkichlarini belgilaydi.

| № | Baholanadigan bo’limlar | Eng yuqori ko’rsatkich ball hisobida | Komissiya belgilagan foiz |
|---|---|---|---|
| 1 | BMI ning ñKirishò qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 | |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 | |
| 3 | ñXulosaò qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 | |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 | |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 | |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 | |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 | |
| 8 | BMI mavzusi boðyicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda maðruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 | |
| Jami: | | | |

**Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:**

1. 5230100-ñIqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)ò taôlim yoônalishining bitiruvchisi Bekchanov Maqsud Yuldashevichning ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyatiò mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun ____ lik oôzlashtirish koôrsatkichi belgilanish va ñ_____ò deb baholansin.

2. ________________________________________________________________
________________________________________________________________

**DAK raisi: ______________________________**

**a'zolari: ________________________________**

**________________________________**

**2016 yil "___" _________**

**Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasi**

Bitiruv malakaviy ish ___-sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Bekchanov Maqsud Yuldashevich.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyatiò.

Ilmiy rahbarning ismi-sharifi: Ollanazarov B.D.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2016 yil ñ___ò _________dagi majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib ñKasb ta`limiò kadedrasi professori, i.f.d.

S.K.Salayev tayinlandi.

**Kafedra mudiri: __________ dots. Matyakubov U.R.**

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish boôyicha tavsiyasiga roziman.

**Fakultet dekani: __________ prof. Salayev S.K.**

**Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasi 5230100-“Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” bakalavr ta’lim yo’nalishi**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Fakultet dekani __________**
**prof. Salayev S.K.**
**“___” _________ 2016 y.**

## BITIRUV MALAKAVIY ISH BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Bekchanov Maqsud Yuldashevich

1. Ishning mavzusi: ñMilliy iqtisodiyot rivojida sanoat korxonalari klasterlarining ahamiyatiò 2015 yil ñ10ò noyabr Universitet rektorining 203 - T&1 - sonli buyrugôi bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: ñ___ò _________ 2016 y.

3. Mavzu boôyicha dastlabki maôlumotlar beruvchi adabiyotlar roôyxati

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maôruzasi. Xalq so`zi 2016 y.

2. A.F. Rasulev va boshqalar. O`zbekiston: Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish. T.: Konsauditinform. 2011.

3. A.M.Sadiqov va boshqalar. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. T.:IFRM nashriyoti 2015 y.

4. A.Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. T.: Sano-standart nashriyoti, 2014 y.

5. Maxmudov E., Raxmonova F. Modernizasiya ï strategicheskiy kurs strany // Delovoy partnyor. 8-14 noyabrya, 2012 g.

6. [illegible], 2013 г

7. O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.O. Alimov, A.F. Rasulev, A.M. Qodirov va boshqalar // S.S. G`ulomov tahriri ostida. ї T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

4. Ishning maqsadi: Mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda va innovatsion faollikni klasterlar orqali taőminlash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

5. Chizma materiallar roőyxati; 3 ta jadval va 5 ta chizma

6. Ilmiy rahbar: ñTurizmò kafedrasi katta oőqituvchisi, B.D.Ollanazarov

**BMI bajaruvchi talaba: __________ Bekchanov Maqsud Yuldashevich**

**Kafedra mudiri: __________ dots. Matyakubov U.R.**

**MILLIY IQTISODIYOT RIVOJIDA SANOATI KORXONALARI KLASTERLARINING AHAMIYATI**

**KIRISH**

**1 - BOB. “KLASTER” NAZARIYASI VA UNI SANOAT KORXONALARIDA QO`LLASHNING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI.**

**1.1. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda “Klaster” nazariyasi va uning o`ziga xos jihatlari.**

**1.2. Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi mohiyati va omillari**

**1.3. Mintaqa raqobatbardoshligini baholash ko`rsatkichlarini aniqlash uslublari**

**2 – BOB. MILLIY IQTISODIYOT RIVOJIDA SANOAT KORXONALARI KLASTERLARINING AHAMIYATI**

**2.1. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini real oshirishi mumkin bo`lgan klasterlarni shakllantirish zaruriyati**

**2.2. Xorazm viloyatining sanoat salohiyati va unda klasterlarni shakllantirish imkoniyatlari**

**2.3. O`zbekiston Respublikasida texnologik innovatsion klasterlar va tizimlarni shakllantirish istiqbollari**

**Xulosa va takliflar**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, raqobat muhitini shakllantirish, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalari klasterlarini shakllantirish mamlakat hamda uning mintaqalarida sanoat salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taökidlaganlaridek, ñMamlakatning raqobatbardoshligini taôminlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o`zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish lozim»ò[1].

Mintaqalar raqobatbardoshligi nazariyasi endigina shakllanayotganligi sababli uning mazmuni, tushunchasi bo`yicha olimlar o`rtasida turli qarashlar va taôriflar mavjud. Fikrimizcha mintaqa raqobatbardoshligi - uning raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalangan holda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishni tashkil etish asosida aholi turmush darajasini oshirishdan iborat. Mintaqalar o`rtasidagi raqobatbardoshlik jarayoni mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar o`rtasidagi aniq bir ko`rinishga ega bo`lmaydi. Ushbu jarayon yetarlicha uzoq va murakkab bo`lib, mintaqalarning raqobatbardoshligi, birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilgan holda har bir hududning raqobat afzalliklaridan samarali foydalanishga qaratilgandir. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish ularning uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasining asosini tashkil qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti.** Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo`lib, mamlakatimiz sanoat tarmogôi va sanoat korxonalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda klasterlarni shakllantirish masalalari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda va innovatsion faollikni klasterlar orqali taôminlash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishi oldiga qoôyilgan maqsadga erishish uchun

[1] Karimtsv I A. Astssiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va halqning fartsvtsnligini yanada yuksaltirishdir. T. O`zbȩkisttsn, 2010, 59 b.

quyidagi vazifalar belgilandi:

- milliy iqtisodiyotida raqobatbardoshlik omillarini tahlil qilish;
- Mintaqa raqobatbardoshligini baholash ko`rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish;
- Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini real oshirishi mumkin bo`lgan klasterlarni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Xorazm viloyatining sanoat salohiyati va unda klasterlarni shakllantirish imkoniyatlarini baholash;
- innovatsion iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish rejasini ishlab chiqish va tadqiq qilish;
- texnologik innovatsion klasterlar va tizimlarni shakllantirish.

**Bitiruv malakaviy ishida qo`llanilgan usullarning qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishida ilmiy bilishning dialektik, abstrakt - mantiqiy fikrlash, tahlil, sintez va statistik usullaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini O`zbekiston Respublikasi qonunlari va meъyoriy hujjatlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi maъlumotlari, mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning asarlari, shuningdek, internet resurslari tashkil qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roъyxatidan iborat bo´lib, matnda qator jadvallar mavjud.

## 1 - BOB. "KLASTER" NAZARIYASI VA UNI SANOAT KORXONALARIDA QO`LLASHNING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI

### 1.1. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda "Klaster" nazariyasi va uning o`ziga xos jihatlari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyotida ro`y berayotgan integrasiya jarayonlari uning baynalminallashuvi va globallashuvi rivojlanishiga katta taôsir ko`rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotining glaballashuvi bir tomondan qo`shimcha qiymat yaratishning transmilliy ñzanjiriniò ko`zda tutgan xolda, ikkinchi tarafdan ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalarida ham raqobatni kuchaytirmoqda. Globallashish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni taôminlovchi umumjahon kommunikasiya tizimi ham rivojlanib bormoqda.

Integrasiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo`jalik yuritish tizimini shakllantirish yo`li hisoblanib, o`zaro provard maxsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo`lgan korxona va tashkilotlarni o`z ichiga olgan ñKlasteròlar yaratishdir. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad ï shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo`lgan taôlim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg`unlashtirish ï innovasion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo`naltirishdan iborat.

ñKlasterò atamasi fransuzcha so`z bo`lib o`zbekcha tarjimasi ñpanjaò, ñboshò, ñbog`lamò, ñguruhò, ñto`planishò, ñturg`unò maônolarini beradi. SHuningdek, ñklasterò tanlanma tadqiqotlarning bir usuli sifatida ham ifodalanadi.

ñKlasterò nazariyasining asosi bo`lib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan ñIqtisodiyot prinsiplariò nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg`unlashishi to`g`risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari bo`yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi subôektlarni hududiy uyg`unlashuvi:

ï malakaviy mehnat resurslarining borligi;

ï taôminotchi va qo`shimcha sohalarning o`sishi;

ï har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli bo`g`inlariga ixtisoslashuvining

mavjudligiga asoslanganligi.

ñKlasterò nazariyasini o`rganish jahon hamjamiyatida tez surôatlarda o`sib bormoqda va uni amaliyotda qo`llash esa, milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo`nalishiga aylanmoqda.

ñKlasterònazariyasining ko`p jihatliligi, unga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlar shakllanishiga sabab bo`ldi.

1980 yillardan keyin ñKlaster nazariyasiòning rivojlanishida 3 ta muhim (Amerika, Britaniya va Skandinaviya va boshqa) ilmiy maktablar yutuqlarini ko`rishimiz mumkin. Amerika olimlari: M.Porter ñRaqobat ustunligi nazariyasiò, M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensenlar ñmintaqaviy klasterlar konsepsiyasiò, A.Marshall ñSanoat hududlari nazariyasiò, P.Bekatin ñItalyan sanoat okruglari nazariyalariò, M.Storper ñIdealò hududiy klasterò nazariyalarini yaratgan. Qo`shimcha qiymat va ñklasterlar zanjiri uyg`unligi, mintaqalarni o`qitish konsepsiyalariò ham shu guruhdan o`rin olgan. Aynan shu olimlar nazariyalarida klasterlar ï ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo`lib, ularning hududdagi taôlim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko`rsatuvchi subôektlar faoliyati bilan uyg`unlashgan tizimi ekanligi taôkidlanadi.

Britaniya nazariyotchilarining (dj. Danning, K.Brimen, SHmit, Dj. Xamfrilar) fikricha, klaster ï o`zaro xamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilovchi institusional nazariyalardir. Bu holatda ñklasteròning o`ziga ñzamonaviy institutò sifatida qaralmoqda. Ular mazkur tizim qatnashchilarining o`zaro munosabati turlicha ï rasmiy va norasmiy bo`lganidek, klasterlarning ham tashqi doirasi keng bo`ladi demoqchilar.

Skandinaviya olimlari (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izakson) ï klasterning evolyusion rivoji bir qator bosqichlardan o`tishi, yaôni ñtug`ilishidan tugagunichaò ï bu shundan dalolat beradiki, evolyusion nazariya imkoniyatidan foydalanish ñklasterò nazariyasini bildiradi, degan mulohaza qilmoqda.

Boshqa to`rtinchi guruh olimlar Klasterni o`zi ichiga olgan ñhudud ï korparasiya ustunligiò, ñhudud ï bozor ustunligiò, ñhudud ï davlat ustunligiò, ñhudud-ijtimoiy soha ustunlikò konsepsiyalari asosidagi mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy paradigmalaridir, deb hisoblaydilar.

Klasterlar nazariyasi Rossiya olimlari YU.S.Artomonova, B.B.Xurustalev va boshqalar tomonidan ham o`rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo`yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. YUqoridagi nazariyalarni yaratilishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishini nazarda tutadi.

ñKlasterò nazariyasi evolyusiyasidan uning ikki fundamental tavsifini ajratib ko`rsatishimiz mumkin.

Birinchisi, klasterga uyg`unlashgan korxona va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagi tovarlar bozori bilan bog`liq bo`lishi zarur. Bunday bog`liqlik vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo`shimcha bo`limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish).

Ikkinchisi ï klasterlar geografik yaqin joylashgan o`zaro bog`liqlikdagi korxonalar guruhi bo`lib, ular o`rtasidagi o`zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko`proq qo`shimcha qiymatni yaratishiga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir.

Sanoat klasterlari avvalo, shu tarmoq ichidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradi. Mamlakat va hududlar raqabatbardoshligini rivojlantirishga klaster nazariyasini tatbiq etish g`oyasining asoschisi Maykl Porter fikriga ko`ra, ***Klaster – geografik nuqtai nazardan qo`shni bo`lgan, o`zaro bog`liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqalar) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko`rsatib, ma’lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta’lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmaviy kompaniyalar) guruhidir***, yoki ***“Klaster” – ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligining o`sishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o`zaro chambarchas bog`langan tarmoqlar yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi hamjamiyatlardir.***

Klaster nazariyasi ilmiy jarayonga marketing strategiyasi shaklida, davlat, hududlar va mintaqalar korxonalarining bozordagi raqobat muhitida g`olib bo`lishlarini taôminlovchi g`oya-usuli sifatida kirib keldi.

Klaster strategiyasini amalda qo`llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g`oyasi turli mamlakatlarda va tarmoqlarda uning o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lsada, ammo M.Porter va M.Enraytlar uning quyidagi

umumiy ustuvorligi borligini ochib berdilar:
ï korxona (firma)lar uchun taòminotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va taòlim markazlariga to`g`ridan-to`g`ri bog`lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 foizgacha ko`pligi o`z tasdig`ini topgan;
ï taòlim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o`tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo`ladi;
ï ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko`proq rag`batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo`ladi.
SHuning uchun xozirgi iqtisodiyotni inqirozdan saqlash jarayonlarida, ayniqsa iqtisodiy rivojlanishning anòanaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, innovasion texnologiyalar asosida biznesni tashkil etishda ñKlasterò nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo`l hisoblanadi. ñKlasteròlashtirishni korxonalar innovasion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli taòsiriga qarshi turishdagi milliy va mintaqaviy rivojlanish talablariga to`la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb ham qaralmoqda.

Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muxim o`rin tutadi. Agar dastlab klasterlar faqat ñbozorning ko`rinmas qo`liò (raqobat) tufayli, avvalo transmilliy kompaniyalarni zamonaviylashtirishda tashkil etilgan bo`lsa, keyingi vaqtda ko`pgina mamlakatlarning hukumatlari bu jarayonga sezilarli darajada taòsir etgani xolda ularga yordam bermoqdalar. Klaster strategiyasi jozibadorligi, yo`nalishlarning turli-tumanligi bois ham, innovasion klasterlarini davlatning o`zi shakllantirishni taqozo etmoqda.

Davlat iqtisodiyoti klasterlarning kuchli jihatlariga tayanadi, chunki ularsiz eng rivojlangan iqtisodiyot ham o`rtamiyona natijalarga erishishi mumkin, degan xulosalar mavjud. Klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo`nalishlari bo`yicha taqsimlanadi:
ï boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini rag`batlantirib va yangi strategiyalarni taòminlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;
ï o`zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar isteòmolchi va mahsulot

yetkazib beruvchilarning kanallari bo`yicha tez tarqaladi;

ï klaster ichidagi o`zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo`lishiga olib keladi;

ï inson kapitali, ilmiy g`oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

*Klaster ishtirokchilari deganda* ï *klasterda faoliyat yurituvchi bozor sub'ektlari tushuniladi.* Rivojlangan davlatlarning tajribalari shuni ko`rsatmoqdaki, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taòminlashda, investision faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda klasterlarning, xalqaro logistik markazlarining, erkin iqtisodiy zonalarning o`rni va ahamiyati juda yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda innovasion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo`yicha maòlum tajriba to`plangan.

Evropa ittifoqi mamlakatlari va AQSHda bu strategiya keng qo`llanilmoqda. Klasterlar soni Buyuk Britaniyada 168 ta, Gollandiyada 20 ta, Germaniyada 32 ta, AQSHda 380 ta, Daniyada 34 ta, Fransiyada 96 ta, Italiyada 206 ta, Finlyandiyada 9 ta, Hindistonda 106 tani tashkil etadi. Daniya, Finlyandiya, SHvesiya sanoatini klasterlar to`la egallagan.

Italiyada sanoat klasterlari hissasiga ish bilan band aholining 43 foiz, milliy eksport hajmining 30 foizdan ko`prog`i to`g`ri kelmoqda. Klaster tuzilmalari SHveysariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Fransiyada oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubiy-sharqiy Osiyo, Xitoy, Singapur, YAponiya va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda.

Masalan, Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz kech edi. Biroq 2003 yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy eòtibor qaratdi. Bu birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashda amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch-g`ayratini birlashtirishni ko`zda tutmoqda.

Klasterlar ñErkin ilmiy-texnikaviy zonalarò shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo`lib, u yerda ilmiy-

ishlab chiqarish va o`quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o`rnatiladi. ñErkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovasiya markazlari ï texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Texnoparklar ikkita asosiy komponentlardan: ishlab chiqarish (sanoatning ilg`or sohasidagi korxonalar) va mutaxassislar (universitet, institut, ilmiy-tekshirish instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlari)dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo`naltiriladi.

Prezidentimizning ñBirinchi darajali eòtibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bo`yicha dastur tayyorlashga va uni amalga oshirishga qaratilishi zarurò degan ko`rsatmalarini yuqori darajada amalga oshirishda bosh yo`nalishi xalqaro amaliyotda sinalgan ñKlasterò nazariyasiga asoslangan tajribadan foydalanish, jumladan, iqtisodiyotimizning to`qimachilik va yengil sanoat istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakat, hudud yoki viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, eng avvalo, ishlab chiqarayotgan tovarlarini mahalliy va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi yaòni xaridorgirligi orqali bilan aniqlanadi. Mamlakatning taòlim tizimidagi islohotlar va barcha ilmiy, maònaviy-maòrifiy rivojlanishlarning yakuniy ko`rsatkichi ham tovarlar va xizmatlarimizning zamonaviy bozorlarda raqobatbardoshligining taòminlanishi bilan baholanadi.

O`zbekistonda birinchi bo`lib A.SH.Bekmurodov va YAng Son Belar ñO`zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi bo`yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida chet mamlaktlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo`yicha klasterlardan foydalanish loyihalari tavsiflanib, Amerikada axborot-kommunikasiya, YAponiyada avtomobil, neft-kimyo va tekstil, Italiyada keramika va gilam ishlab chiqarish, Koreya Respublikasida tekstil sanoatida erishilgan natijalar tahlil qilingan. SHu bilan birga, A.SH.Bekmurodov va YAng Son Belar asosiy eòtiborni O`zbekiston tekstil sanoati eksport saloxiyatini taxlil qilishga qaratib, sohaga chet el investisiyalarini ko`proq jalb qilish bo`yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar va mahsulotni bo`yash bo`yicha sanoat hududi Klasteri modelini Koreya Respublikasining Degu shahridagi tajriba asosida ishlab chiqqanlar.

## 1.2. Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi mohiyati va omillari

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo`jaligidagi mavqei va o`rni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy raqobat texnik taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanadi va uning taôsirida ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining doimiy yangilanib borish jarayoni davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari yangilanadi va sifati ortib boradi.

Raqobatbardoshlik deganda odatda tovar ishlab chiqaruvchilarning minimal rentabellikni taôminlovchi narxda tashqi bozorda sotish uchun ishlab chiqarishga bo`lgan qobiliyati tushuniladi. Taôkidlash lozimki, raqobatbardoshlik tovarlar bozori bilan cheklanib qolmay, makroiqtisodiy tavsifga ega hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taôkidlaganlaridek, ño`z-o`zidan ayonki, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatbardosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida ko`zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so`z yuritish mumkin emasò.[2]

Tarixan mamlakatlarning raqobatbardoshligi kontseptsiyasi milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`rnini belgilab beruvchi qiyosiy afzalliklari (arzon ishchi kuchi, boy tabiiy resurslar, qulay geografik joylashuv, iqlim, infratuzilma omillari va h.k.) nazariyasiga asoslangan.

Qiyosiy afzalliklar mamlakatga tabiatdan berilgan bo`lib, ular abadiy emas va takror ishlab chiqarilmaydi. Ushbu raqobat afzalliklari fan va texnikaning rivojlanishi, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, ishlab chiqarish darajasida globallashuvi va tovarni ishlab chiqarishdan tortib to uni isteômolchiga yetkazib berishgacha bo`lgan barcha bosqichlarda innovatsiyalarga asoslanadi.

O`zbekiston quyidagi qiyosiy afzalliklarga ega:

- qishloq xo`jaligi rivojlanishi uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitlarining mavjudligi;

---

[2] Karimtsv I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi btssqichga ko`taradigan yil bo`ladi. -Ttsshkj nt.: ñO`zbj kisttsnò, 2012. 20-b.

- boy tabiiy resurslar va rekreatsiya resurslariga egaligi;
- boy madaniy-tarixiy merosga egaligi turizmni rivojlantirish imkonini beradi;
- mamlakatning qulay geografik joylashuvi;
- O`zbekiston aholisining mehnatsevarligi va tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo`lgan mehnat resurslarining mavjudligi.

O`zbekistonning raqobat jihatdan afzalliklarini tahlil qiladigan bo`lsak, quyidagilarni ajratish mumkin:

- mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi;
- insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta qo`yilmalar;
- aholi o`rtacha yashash yoshining uzunligi;
- mehnat resurslarining raqobatbardoshligi;
- mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, qiyosiy afzalliklarga ega bo`lish bilan birga respublika milliy iqtisodiyotining raqobat afzalliklarini ham rivojlantirish zarur. Mazkur holatda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi omillarga asosiy e'tiborni qaratish lozim, xususan: mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi, mehnat resurslarining raqobatbardoshligi va mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi[3].

Shunday qilib, raqobat nuqtai nazaridan afzalliklar o`zgaruvchan bo`lib, inson kapitalining rivojlanishi, innovatsion yuqori texnologiyalar, intellekt bilan bog`liq va o`z tabiatiga ko`ra cheksizdir. Mamlakatning qiyosiy va raqobat afzalliklarini aniq farqlash lozim. Bir mamlakatda qiyosiy va raqobat afzalliklarining integratsiyalashuvi uning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, xalqaro raqobatni vujudga keltirishning muhim sharti dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining ochiqligi bilan belgilanadi. O`zbekiston iqtisodiyoti erkinlashuvi chuqurlashib, ochiqlik darajasi ortib jahon xo`jaligiga integratsiyalashuvi kuchayib bormoqda.

---

[3] O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.X. Alimov, A.F. Rasulev, A.M. Qodirov va boshqalar // S.S. G`ulomov tahriri ostida. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. 26b.

Baʼzi iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi milliy ishlab chiqarishning tarmoq tarkibiga bog`liqdir. Ishlab chiqarish hajmining umumiy tarkibida bazaviy tarmoqlar ulushi qanchalik yuqori bo`lsa, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi shunchalik past bo`ladi. Ushbu holat bazaviy tarmoqlarning xalqaro ixtisoslashuv jarayoniga kam darajada jalb etilganligi va asosan ichki bozorga yo`naltirilganligi bilan izohlanadi.

Qayd etib o`tilganidek, iqtisodiyotning ochiqligi xalqaro iqtisodiy raqobatning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatlarning raqobatbardoshligi qanday aniqlanadi va u nimalarga bog`liq? Nima sababdan baʼzi mamlakatlar raqobatbardoshligi jihatidan boshqa mamlakatlarga nisbatan ilgarilab ketgan?

Raqobatbardoshlik tushunchasiga iqtisodiy adabiyotda firmalarning mavjud sharoitda raqobatchilariga nisbatan baho va bahosiz tavsifiga ko`ra tovarlarni loyihalashtirish, tayyorlash va sotish borasidagi real va potentsial imkoniyatlaridir deya taʼrif beriladi.

AQShning Garvard universiteti professori M. Porter fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligi darajasini uning milliy kompaniyalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, firmalar, tarmoqlar raqobatbardoshligi taʼminlab beradi. Shuning uchun dastlab mamlakat raqobatbardoshligini emas, balki milliy kompaniyalar raqobatbardoshligini tahlil etish lozim. U mamlakat kompaniyalarining muvaffaqiyatini taʼminlab beradigan qulay muhitni yaratish quyidagi to`rtta muhim ko`rsatkichga bog`liqligini taʼkidlaydi[4]:

- ishlab chiqarish omillari bilan taʼminlanganlik;
- talab ko`rsatkichlari;
- yaqin va xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlar;
- raqobat muhiti va firma strategiyasi.

Ushbu muhit doirasidagi milliy kompaniyalarning samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshlik reytingini belgilab beradi.

Jahon amaliyotida mutaxassislar milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini aniqlash uchun 340 dan ortiq ko`rsatkichlar va 100 dan ortiq usullardan foydalanishadi.

[4] [illegible], 2002. [illegible] 176.

Mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagilar asosiy omillar sifatida xizmat qiladi: iqtisodiy salohiyat va iqtisodiyotning o`sish surĉatlari; sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi; ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish darajasi va uni o`zlashtirish surĉatlari; xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish; ichki bozor hajmi va dinamikasi; iqtisodiyotda davlatning roli; moliya tizimining egiluvchanligi; mehnat resurslari bilan taôminlanganlik va malaka darajasi; ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holat; iqtisodiyotning jahon bozori konôyunkturasi talabiga moslashish darajasi va qobiliyati.

Shveytsariyaning Lozanna shahrida joylashgan Menejmentni rivojlantirish xalqaro instituti har yili dunyoning yetakchi 47 mamlakatiga raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan baho beradi. Tahlillar 287 mezon bo`yicha guruhlangan 8 ta omil bo`yicha amalga oshiriladi: milliy iqtisodiyot tavsifi ï YaIM hajmi, investitsiyalar va jamg`armalar hajmi, pirovard isteômol darajasi, aholi turmush darajasi, iqtisodiyotning amal qilish samaradorligi darajasi; iqtisodiyotning baynalmilallashuv darajasi; siyosiy tizimning barqarorligi; moliya tizimi; infratuzilma; boshqaruvning samaradorligi; fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi; mehnat resurslarining tavsifi.

Mamlakatlar raqobatbardoshligini tahlil etuvchi xalqaro tadqiqotlardan biri ï bu Jahon iqtisodiy forumining metodikasi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida mamlakatning iqtisodiy o`sishini baholashda o`rta va uzoq muddatli rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi muhim makro va mikroiqtisodiy ko`rsatkichlar asosida raqobatbardoshlikning agregat indekslari hisoblanadi. Ushbu metodika 30 yildan buyon qo`llaniladi va uning natijalari Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik to`g`risidagi maôruzasida chop etiladi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini baholash ko`p sonli maôlumotlarni yig`ish, guruhlash, umumlashtirish asosida raqobatbardoshlik ko`rsatkichlarini asosiy omillar bo`yicha hisoblashni ko`zda tutadi. Keyin barcha omillarning raqobatbardoshlik ko`rsatkichiga qo`shgan hissasini aks ettiruvchi agregat indeks va subindekslar hisoblanadi. Zamonaviy milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini aniqlash metodikasida 12 ta asosiy omil ajratiladi (1.2.1 - chizma).



**1.2.1-chizma.**

**Raqobatbardoshlik ko`rsatkichlarining guruhlanishi**[5]

Qayd etib o`tilgan omillar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruh bazaviy talablarni o`z ichiga oladi, ikkinchi guruh biznes muhit samaradorligini oshiruvchi omillarni qamrab oladi, uchinchi guruh esa biznesni takomillashtirish omillarini birlashtiradi. Har bir guruh muayyan subindekslar bilan tavsiflanadi. Subindekslarni hisoblayotgan vaqtda har bir guruhning vazni quyidagicha belgilanadi birinchi guruh ï 25%, ikkinchi guruh ï 17%, uchinchi guruh ï 50% (1.2.1-jadval).

Bunda har bir subindeksning aniq mamlakat uchun hisoblangan natijaviy Global raqobatbardoshlik indeksiga qo`shgan hissasidan kelib chiqib, ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash mumkin bo`ladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy rivojlanish jihatdan turli darajadagi mamlakatlarning raqobatbar-doshligini taqqoslash imkonini beradi.

**1.2.1-jadval**

**Rivojlanishning har bir bosqichida asosiy uch guruh ko`rsatkichlarining**

[5]The Global Competitiveness Report 2009-2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. p. 8.

**ulushi, foiz hisobida**[6]

| **Subindekslar** | Resurslarga yo`naltirilgan bosqich | Samaradorlikka yo`naltirilgan bosqich | Innovatsiyaga yo`naltirilgan bosqich |
|---|---|---|---|
| Bazaviy talablar | 60 | 40 | 20 |
| Samaradorlik ko`rsatkichlari | 35 | 50 | 50 |
| Innovatsion salohiyat va rivojlanish omillari | 5 | 10 | 30 |

Tahlillar ko`rsatishicha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining taôsiri mamlakatlarning raqobatbardoshlik ko`rsatkichlariga ham jiddiy taôsir ko`rsatgan. Jumladan, global raqoatbardoshlik indeksida birinchi o`nlikka kiruvchi mamlakatlardan AQSh, Daniya, Kanada va Niderlandiya kabilar 2008ï 2009 yildagi ro`yhatdan pastga tushishgan (1.2.2-jadval).

**1.2.2-jadval**

**2009-2010 yillar uchun global raqobatbardoshlik indeksi bo`yicha birinchi va oxirgi o`nlikka kiruvchi mamlakatlar**[7]

| Mamlakatlar | 2009-2010 y. | | 2008-2009 y. |
|---|---|---|---|
| | O`rni | Ball | O`rni |
| Shveytsariya | 1 | 5,60 | 2 |
| AQSh | 2 | 5,59 | 1 |
| Singapur | 3 | 5,55 | 5 |
| Shvetsiya | 4 | 5,51 | 4 |
| Daniya | 5 | 5,46 | 3 |
| Finlandiya | 6 | 5,43 | 6 |
| Germaniya | 7 | 5,37 | 7 |
| Yaponiya | 8 | 5,37 | 9 |
| Kanada | 9 | 5,33 | 10 |
| Niderlandiya | 10 | 5,32 | 8 |

[6]The Global Competitiveness Report 2009-2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 8.
[7]The Global Competitiveness Report 2009-2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 13.

## 1.3. Mintaqa raqobatbardoshligini baholash ko`rsatkichlarini aniqlash uslublari

Mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga yetarli taʼsir ko`rsatadi hamda tarmoqlar, korxonalar va tovarlar raqobatbardoshligi bilan o`zaro bog`langan holda amal qiladi, bu mintaqaning kompleks rivojlanishini taʼminlashda uning raqobatbardoshligiga berilgan bahoni belgilaydi.

Mintaqa raqobatbardoshligini baholash, bir tomondan, mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklarini taʼminlash, qo`llab-quvvatlash va o`stirish yo`nalishida faol harakatlanish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, mintaqaning zaif tomonlarini bartaraf etish yoki ularni kuchli tomonlarga aylantirish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan mintaqaning raqobatbardoshligi mavjud ishlab chiqarish omillaridan (iqtisodiy potentsialdan) samarali foydalanish sharoitida raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishini taʼminlashga qodirligida, raqobatdagi ustunliklarning mavjudlarini ishga solish va yangilarini yaratishda, raqobatlashayotgan mintaqalar o`rtasida xalqaro ekologik standartlarga rioya qilgan holda yashash tarzini oshirishda namoyon bo`ladi.

Alohida mintaqalarning raqobatdagi ustunliklari quyidagicha tasniflanadi:

- *absolyut ustunliklar* (nodir resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi bilan bog`liq) va *nisbiy ustunliklar* (mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish yoki xizmatlar taqdim etishda boshqa mintaqalarga qaraganda yaxshiroq imkoniyatlar yoki shart-sharoitlarning mavjudligiga bog`liq);
- ishlab chiqarish va innovatsion-investitsion ustunliklar (barcha resurslardan foydalanish hajmi, tuzilishi, innovatsion faolligi, investitsion jozibadorligi va samaradorligi bo`yicha);
- mintaqa funktsiyalari, tovarlar va xizmatlarning miqdor (bozordagi ulush) va sifat xarakteristikalari;
- tarixiy-madaniy: faktik (amalga oshirilgan) va potentsial (hozirgi paytda ishlatilmayotgan).

Raqobatbardoshlik baho berish ko`rsatkichlariga mansubdir, va ushbu tushuncha hal qilinayotgan vazifalarga bog`liq holda o`zining turli jihatlari bo`yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Raqobatbardoshlikni baholash metodlari statistika ko`rastkichlari, ekspert baholar, ranglar bo`yicha tuzilishi mumkin.

Bunda respublika mintaqalarini qiyosiy bahola amalga oshiriladigan xarakteristikalar majmuini ajratib olish ishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Mintaqa raqobatbardoshligini baholashdagi xarakteristikalar va yondoshuvlarni aniqlashda bir narsani tushunish muhimdir, yaʼni mintaqaviy iqtisodiyot bu mintaqaviy resurslar (ishlab chiqarish omillari), mintaqaviy ishlab chiqarish (taklifni shakllantiradigan), mintaqaviy isteʼmol (talab), mintaqaviy infratuzilmadan samarali foydalanish va ushbu jarayonlarni boshqarish majmuidir

Bundan kelib chiqqan holda, ushbu majmuaga mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilaydigan barcha omillar kiritiladi. Bu omillar raqobatchilik ustunliklarining turini xarakterlaydigan alohida ko`rsatkichlar blokiga birlashtirilgan. Ular uchta guruhdan iborat:

- 1-guruh resurs ko`rsatkichlari ï raqiblarga nisbatan sifati yaxshiroq va narxi pastroq tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkonini beradi;
- 2-guruh operatsion ko`rsatkichlar ï raqobatbardoshlik subʼektiga o`z ixtiyorida bo`lgan resurslardan foydalanishda yuqori samaradorlikka erishish va shu asosda chiqim va narxlarni kamaytirib, o`z tovarlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradigan tashkiliy, iqtisodiy, ilmiy-texnologik omillar majmui;
- 3-guruh strategik ko`rsatkichlar ï o`ziga xos rivojlanish yo`lini shakllantirishda resurslar bazasi, tarixiy-madaniy va iqtisodiy-tashkiliy xususiyatlarni optimal birlashtirish imkonini beradigan va shu asosda raqobatdardoshlik subʼektini global raqiblar uchun yetib bo`lmas darajaga olib chiqadigan strategik qarorlar va ularning asosida qabul qilingan rivojlanish dasturlarining majmui.[8]

Quyidagi qoidalar muhim metodik jihatlarni tashkil etadi:

- raqobatbardoshlik mintaqa o`rnini milliy fazoda har bir ko`rsatkichlar guruhi bo`yicha aniqlash yo`li bilan belgilanadi;
- mintaqalarni raqobatbardoshlik bo`yicha ranglarga ajratishda qo`llanadigan ko`rsatkichlar mintaqalarning katta-kichikligi va ularda istiqomat qilgan aholi soniga

---

[8] Butunjahtsn iqtistsdiy ftsrum (VEF) mtsdȩli bo`yicha ham raqtsbatbardtsshlik uchta guruh tsmillardan shakllanadi..

bog`liq bo`lmasligi kerak. Shuning uchun ular nisbiy kattaliklar bo`lishi lozim: jon boshiga nisbatan, ulushga nisbatan;

- mohiyatan ijobiy ko`rsatkichlarning salbiy tusga ega bo`lgan ko`rsatkichlar bilan o`zaro qiyoslanishini taởminlash lozim.

Hududlarni mintaqaviy raqobatbardoshlik ko`rsatkichlari bo`yicha qiyosiy baholash uchun ularning eng muhim xarakteristikalari ajratib olingan bo`lib, mintaqalarni butun mamlakat doirasida qiyosiy baholash mana shular asosida amalga oshiriladi.

Ushbu ko`rsatkichlar to`plamiga bazaviy omillar, samaradorlik omillari va innovatsion omillarning tavsifini beradigan ko`rsatkichlar guruhi kiritilgan.




**1.3.1-rasm.**

**Mintaqaviy raqobatbardoshlik modeli**

Bazaviy omillar resurs, ekologik omillar va inson potentsialidan hosil bo`ladi. Samaradorlik omillari ushbu potentsialdan foydalanish samaradorligini ko`rsatadi va innovatsionomillar ñbilimlar iqtisodiyotiòning rivojlanish darajasi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilish darajasi va innovatsion qarorlar sifatini aks ettiradi.

Mintaqaviy raqobatbardoshlik modelining tuzilishi quyidagi ko`rinishga ega (1.3.1-rasm):

Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilishdan maqsad quyidagilarni aniqlashni ko`zda tutadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur’atlarini ta’minlashga, mahalliy xokimiyatlarning bosh vazifasi ï aholi farovonligini oshirish hamda raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda jahon miqyosida ham, mamlakat ichida ham mintaqaga investitsiyalarni jalb qilishga mintaqalarning qay darajada qodirligi;

- mavjud bo`lgan va yangi yaratiladigan raqobatchilik ustunliklarini rivojlantirish uchun zarur mintaqaviy omillar bilan ta’minlanganligi, iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlaydigan hamda mintaqalarni xalqaro iqtisodiy aloqalarga jalb qilishga yordam beradigan shart-sharoitlarning mavjudligi;
- mintaqada yuqori samarali raqobatbardosh sohalar va ishlab chiqarishlarning mavjudligi va yangilarini yaratish imkoniyatlari.

Mintaqalar raqobatdardoshligini oshirishning asosiy omillarini tahlil etish mintaqalarning raqobatchilikdagi ustunliklarini belgilab beradigan xo`jalik kompleslarining o`ziga xos faoliyat ko`rsatish shart-sharoitlarini baholashni ko`zda tutadiki, bu tahlil va baholash mintaqa faoliyatining quyidagi yo`nalishlari bo`yicha olib boriladi:

- demografik vaziyat va mehnat;
- mahalliy tabiiy resurslar va atrof muhit muhofazasi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat (iqtisodiyotning ochiqligi);
- innovatsion-investitsion faoliyat (davlat boshqaruvi);
- infratuzilmaviy ta’minot (ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma);
- institutsional o`zgartishlar (institutlar) va mahalliy budjet;
- ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o`ziga xos xususiyatlari hamda mintaqa strategiyasini ishlab chiqish uchun dastlabki shart-sharoitlarning o`sish va rivojlanish potentsialining SWOT tahlili;
- o`sishning bosh nuqtalarining hamda klasterlarning shakllanishida ehtimoliy markazlarning tahlili;
- mintaqaning raqobatchilik potentsialini baholash.

Mintaqaviy iqtisodiyot sohalarining o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil etishda asosiy diqqat-e'tibor quyidagilarga qaratilmog`i lozim:

- mintaqaviy iqtisodiyot sohalarining ishlab chiqarish dinamikasi, tuzilishi va samaradorligi;
- ilmiy-texnik va ishlab chiqarish potentsialining rivojlanishi va uning ilg`or fan va texnika yutuqlariga mosligi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, uni jahon darajalari bilan qiyoslaganda, iste'molchilik sifatlari va narx-navo xarakteristikalarini baholash;
- tayyor mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda sotilishini, shuningdek marketing faoliyatining umumiy holatini baholash;
- mintaqaviy iqtisodiyot sohalarining asosiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan foydalanish samaradorligi;
- menedjment va marketing holati, tashqi raqobatchilik sharoitida innovatsion strategiyani mavjudligi.

Mintaqada innovatsion-investitsion faoliyatning tahlili foydalanilayotgan investitsion resurslarning asosiy moliyalash manbalari bo`yicha baholanishini talab qiladi. Bunda o`z, budjet va jalb qilingan mablag`lar, nodavlat investitsiyalar, bank kredit investorlari (investitsiya va sug`urta kompaniyalari, nodavlat pensiya fondlari va h.k.) va aholining mablag`laridan foydalanish dinamikasi va samaradorligi tahlil qilinadi.

Infratuzilmaviy ta'minlanganlik tahlili mintaqaning infratuzilmaviy ustunliklarini aniqlashga va, birinchi navbatda, transport va aloqa kabi mintaqaviy ob'ektlarning rivojlanishiga, shuningdek mintaqada takror ishlab chiqarish jarayonlarining zaruriy dinamikasini ta'minlash uchun bozor mexanizmlaridan yanada kengroq foydalanish imkonini beradigan bozor infratuzilmalarining yuzaga kelishini baholashga qaratilgan bo`lishi lozim.

Institutsional o`zgartishlar to`g`risida fikr yuritish imkonini beradigan tahliliy ko`rsatkichlarning eng muhimlari bular mulkka egalik qilish tuzilmasining o`zgarishi, bozor institutlarining shakllanish tendentsiyasi, tovarlar va xizmatlar bozorlari, moliya resurslari va ishchi kuchining raqobatchilik muhitining yuzaga kelishini aks ettiradigan

ko`rsatkichlardir. Tahlil jarayonida davlat va nodavlat iqtisodiyot sektorining rivojlanish ko`rsatkichlari ajratiladi, ular iqtisodiyot tuzilmasi, xo`jalik yuritayotgan subôektlar soni va asosiy fondlar qiymati, ishlovchilar soni, olinayotgan daromadlar xajmi, mahalliy budjetlarning shakllanishiga ko`rsatgan taôsiri bo`yicha qiyoslanadi.

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy taôminlanganligi mahalliy budjetlar mablag`larining tahlili asosida ularning kelib tushish manbalari va asosiy sarflash moddalari hamda ularning nisbati bo`yicha aniqlanadi. Bunda daromadlar va sarf-xarajatlar moddalarining dinamikasi, ularning o`zaro nisbati, asosiy xarajatlar manbalari va moddalari bo`yicha tuzilishi, umumiy xarajatlar hajmida ijtimoiy ehtiyojlar uchun mintaqa aholisining jon boshiga budjet tomonidan taôminlanganlik, ijtimoiy sarf-xarajatlarning eng muhim moddalari bo`yicha (taôlim, sog`liqni saqlash va h.k.) mintaqa aholisining jon boshiga ketadigan sarflar tahlil etiladi.

Mintaqanning raqobatdagi potentsialini uning quyidagi tarkibiy qismlari bo`yicha olib borish maqsadga muvofiqdir: tabiiy-resurs, ishlab chiqarish-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy-demografik, moliyaviy-iqtisodiy, tashqi iqtisodiy, tashkiliy, innovatsion-investitsion, aholining turmush darajasi va daromadlari va ekologik.

Maômuriy rayon iqtisodiyotining raqobatbarsholshigini baholash quyidagilarni aniqlashga qaratilgan bo`ladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror surôatlarini taôminlash, mahalliy hokimiyat organlarining bosh vazifasi ï jahon miqyosida va mamlakat ichida raqobatning kuchayib borishi sharoitida aholining farovonlik darajasini oshirish va mintaqaga investitsiyalarni jalb qilish yo`lidagi mintaqalarning qodirligi;

- rayon miqyosida raqobatdagi ustunliklarning mavjudlarini rivojlantirish va yangilarini yaratish uchun zarur omillar bilan taôminlanganlik, iqtisodiyotning ochiqligini taôminlaydigan hamda rayonlarni xalqaro iqtisodiy aloqalarga jalb qilishga yordam beradigan shart-sharoitlarning mavjudligi;

- rayonda samaradorligi yuqori bo`lgan raqobatbardosh sohalar va ishlab chiqarishlarning mavjudligi va yangilarini yaratish imkoniyatlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o`ziga xos jihatlari, o`sish va rivojlanish potentsiali, mintaqa strategiyasini ishlab chiqish uchun dastlabki shart-sharoitlarning SWOT-tahlili soha, shahar, rayon, mintaqada muammoviy va boshqarish vaziyatlarini baholashning

samarali va nisbatan oson usulidir. U dastlabki holat, ishga tushirilmagan resurslar va faoliyatga tahdidlarni baholashning muhim biznes-texnologiyasi, bo`lib, axborotdagi bo`sh joylarni to`ldirish va ñanôanaviyò tahlilni mukammalashtirishga qaratiladi.

Mintaqalar raqobatbardoshligining tahlili va bahosi asosiy iqtisodiyot sohalari va turlarining ishlab chiqarish-xo`jalik va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatida kechayotgan tendentsiyalar, shuningdek kamchiliklar va ñtorò yerlar to`g`risidagi maôlumotlarni o`z ichiga olgan bo`lishi va raqobatchilikdagi ustunliklarni ajratib ko`rsatishi lozim.

Modomiki resurslar samaradorligi (maôlumki, bu raqobatbardoshlikning asosiy ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi) rentabellik ko`rsatkichi bilan o`lchanar ekan, bu holda mintaqalarning ichki milliy raqobatbardoshligini dastlab realizatsiya qilingan mahsulot rentabelligi va mintaqalar bo`yicha korxonalar va tashkilotlar aktivlarining rentabelligi bo`yicha aniqlash mumkin.

Mintaqaning rivojlanishidan ko`zlanadigan asosiy maqsad aholi farovonligini muttasil oshirib borish va bunga iqtisodiyot real sektorining samaradorligini oshirish asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hisobiga erishilar ekan, bu yo`ldagi rivojlanish ustuvorliklari qatorida quyidagilarni ajratib ko`rsatish lozim:

- ishlab chiqarishlarni texnologik qayta qurollantirish, fan yutuqlariga asoslangan va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish asosida mintaqaviy iqtisodiyot sohalarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish;
- klasterlarni yaratish va rivojlantirish;
- eksport va import o`rnini bosuvchi ishlab chiqarishlar rivojini rag`batlantirish;
- iqtisodiyot sohalariga samarali investitsiyalash mexanizmlarini joriy etish hisobiga innovatsion-investitsion faoliyatni aktivlashtirish.

Mintaqalar rivojlanishidagi ushbu ustuvorliklarning amalga oshirilishi mintaqaviy sanoat siyosatida o`z aksini topmog`i lozim. Bu siyosat sanoat kompleksining soha tuzilishini quyidagilar asosida takomillashtirishni ko`zda tutadi: ilmiy-texnik potentsiali yuqori bo`lgan mintaqalarda fan yutuqlariga asoslangan, yuqori texnologik yo`nalishga ega bo`lgan loyihalarni amalga oshirish, mahalliy xom ashyoda ishlaydigan sohalar va ishlab chiqarishlarni ustuvor rivojlantirish, mintaqalarda energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish.

Klasterlarni rivojlantirish masalasi ham g`oyat muhimdir. Klaster siyosatining maqsadi ‒ iqtisodiy klasterlarning mintaqa raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi sifatida shakllanishiga yordam berish. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda klaster yo`nalishining asoschisi M Porter ularning raqobatbardoshlikka taъsirini izohlab bergan uchta taъrifni keltiradi[9]:

-maxsus maъlumotlar va axborot, institutlar va ijtimoiy masalalarni imkoniyatini kengaytirish, va qo`shimcha xo`jalik faoliyatini rag`batlantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish;

-firmaning innovatsion potentsialini texnologik bilimlar va innovatsiyalarni tez tarqalishini taъminlash yo`li bilan oshirish. Har bitta klaster doirasida sodir bo`ladigan raqobatchilik bosimi kompaniyalarning innovatsion faoliyatga bo`lgan intilishini kuchaytiradi;

-firma xodimlari tomonidan ajralib chiqish yo`li bilan o`z korxonalarini yaratishga intilishi tufayli yangi korxonalarning yuzaga kelish surъatlarini rag`batlantirish.

Bu borada Finlyandiyaning klasterlashga asoslangan iqtisodiy siyosati yorqin misol bo`la oladi. So`nggi o`n yil mobaynida mamlakat istiqbolli raqobatbardoshlik reytingida 102ta mamlakat orasida birinchi o`rinni egalladi va bu yo`lda xatto AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlardan o`zib ketdi. Innovatsion tuzilmalar tomonidan qo`llab-quvvatlanadigan va unumdorligi yuqori bo`lgan klasterlar hisobiga Finlyandiya jahon o`rmon resurslarining faqat 0,5%igagina ega bo`la turib, yog`ochni qayta ishlash sanoati mahsulotlari bo`yicha jahon eksportining 10%ni va qog`oz eksportining 25%ini taъminlaydi. Telekommunikatsiya bozorida esa bu mamlakat mobil aloqa uskunalari jahon eksportining 30%ini va mobil telefonlar eksportining 40%ini taъminlaydi.

Xitoyda yuqori texnologik sohalar rivojining alohida zonalari yaratilgan edi. Fan va texnologiyalar vazirligi va mintaqaviy xokimiyatlar hamkorlikda bu zonalarda klasterlarni yaratish va rivojlantirish bilan shug`ullanadilar. 2002 yilga kelib Xitoyda 53ta mana shunday zonalar bo`lib, ularda 3.49 mln. xodimni jamlagan 28388 firmalar

---

[9] ʇ tstdsj tɕʃ . ʃ ʝ ʞ ʜlzdʑʘtɑtsʜdʑʘ ʢtsdʑ ltɕj dʑɿɋʷ. ‒ ʃ tsfŋʚʘ ʃ ʝ ʞ ʜlzdʑʘtɑtsʜdʑ ʝ tslsdʑsʱ ʝ dʑɋʷ, 2005. ‒ 859 fŋ

faoliyat ko`rsatib, ularning avdo-sotiq darajasi 1 trln. yuanni tashkil etdi. Markaziy xokimiyatning qo`llab-quvvatlashi va roziligi bilan mahalliy (munitsipal) xokimiyat o`z hududida yuqori texnologik sohalarning rivojlanish zonasini tashkil qilishi mumkin. Markaziy xokimiyat shuningdek alohida imtiyozli choralarga loyiq firmalarni tanlab oladi. 1985 yilda Xitoyning Shentjen shahrida yuqori texnologiyalarning birinchi alohida zonasi ï yuqori texnologik industrial park tashkil etilgan edi. 1988 yili Pekin industrial zonasi yaratildi. 1991 yilga kelib, inkubatorlarni rivojlantirish Torch Program dasturi doirasida 26ta shunday zonalar yaratildi. 2002 yilda Xitoy Singapur bilan shartnoma tuzdi. Uning maqsadi ishlab chiqarishning to`rtta sohasi ï axborot texnologiyalari, mikroelektronika, yangi materiallar va biologik fanlar (biologiya, bioximiya, immunologiya, genetika, fiziologiya, ekologiya va h.k.) sohalarida kooperatsiyani kuchaytirishdan iborat bo`ldi.

Iqtisodiyotning klasterli tuzilmasi davlatning umumiy iqtisodiy siyosatiga katta taôsir ko`rsatadi. Bu avvalam bor ilm-fan, xatarli innovatsiyalar, eksport faoliyati, zarur infratuzilmaning yaratilishi va taôlim bilan bog`liq. Klasterlarning rivojiga tayanadigan iqtisodiy siyosat davlatlar raqobatdardoshligining o`sishiga olib keladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda klaterli yondoshuvdan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Frantsiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Qozog`iston kabi davlatlar hukumatlari foydalanib kelayaptilar. Amalda klaster ishlab chiqarishni kombinatsiyalashda geografik, fazoviy jihatni tashkil etadi. Uning samaradorligi ishlab chiqarishning barcha olmillari (xom ashyo, energiya, ishchi kuchi, kapital xarajatlar, transport va boshqa muomala chiqimlari)ga nisbatan xarajatlar (chiqimlar)ning kamayishi bilan bog`liq bo`lib, bu bir-birlariga o`z mahsulotlari va xizmatlarini yetkazib beradigan va shuningdek ishchi kuchining yagona bozoriga ega bo`lgan firmalarning geografik yaqinlashuvi va o`zaro iqtisodiy hamkorligidan kelib chiqadigan mintaqaning sohalar ichidagi va sohalararo tejamkorligi natijasidir. Bu o`rinda eng katta tejamkorlik quyidagilar hisobiga sodir bo`ladi:

- transport xarajatlarining pasayishi hisobiga;

- ixtisoslashgan xizmatlar, masalan, remont, reklama, kadrlarni o`qitish sifatining yaxshilanishi va ularga bo`lgan sarf-xarajatlarning kamayishi, ixtisoslashgan ilmiy markazlar ochishning imkoniyatlari hisobiga, chunki klasterlar shakllanadigan bo`lsa,

bunday xizmatlarga bo`lgan talab ham ortadi;

- yagona ishchi kuchi bozorining mavjudligi.

Ushbu jarayonning amalga oshirilishida mintaqaviy xokimiyat organlari alohida o`rin egallaydi. Ular avvalam bor qaysi sohada klaster yaratish ko`proq foyda keltirishi haqida bir qarorga kelib olishlari, yaôni sohalarni klasterlash potentsialini baholashlari, keyin klaster yaratishning dastlabki  bosqichini o`z zimmalariga olishlari lozim.

Klasterlash potentsiali deganda mintaqa hududida joylashgan sohalar, korxonalar va infratuzilmaviy tashkilotlarda raqobatchilik ustunliklarining mavjudligi, ushbu ustunliklarni birlashtirish va mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda ulardan foydalanish imkoniyatlari tushuniladi.

Sohalarni klasterlash potentsialining darajasini aniqlashga qaratilgan ish quyidagi bosqichlardan iborat:

- klasterlash potentsiali darajalarini aniqlash (yuqori, o`rta, past) va ularning tavsifini berish;

- tahlil olib borish uchun omillarni tanlab olish;

- ekspertiza o`tkazish yo`li bilan, klasterlash potentsialining tegishli darajalarini hisobga olgan holda, tanlab olingan omillarning chegaraviy qiymatlarini aniqlash;

- har bir omilga ballar tizimi bo`yicha tavsif berish;

- qo`llanayotgan ko`rsatkichlar guruhi chegarasida ballar shkalasining maksimal va minimal qiymatlarini aniqlash;

- klasterlash potentsiali darajasini baholash.

Mintaqa raqobatbardoshligini tahlil etishda boshqaruv qarorlari qabul qilinayotganda muhim instrument vazifsini o`taydigan ekologik-iqtisodiy vaziyatning miqdoriy bahosi muhim ahamiyatga ega.

O`zbekistonda tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq faoliyatda ekologik indikatorlardan maqsadga muvofiq foydalanish 2005 yildan, O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat komitetining BMT Rivojlanish dasturi bilan hamkorlikda hamda tabiiy muhit holatining nazoratini amalga oshiradigan asosiy vazirliklarni jalb qilgan holda ñO`zbekistonda atrof muhit holatining monitoringini o`tkazish uchun ekologik indikatorlarò loyihasi ishga tushgandan keyin boshlandi.

O`zbekistonda tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq faoliyat amaliyotiga milliy

ekologik indikatorlarni joriy etish ishlari ñTabiatni muhofaza qilish to`g`risidaògi O`zbekiston Respublikasi Qonuni (28-modda), O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 apreldagi 111-son ñO`zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi haqidagi nizomni tasdiqlash to`g`risidaògi, 2003 yil 13 yanvardagi 16-son ñO`zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhitning 2003-2005 yillarga mo`ljallangan monitoringi dasturini tasdiqlash to`g`risidaògi va 2006 yil 16 martdagi 48-son ñO`zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhitning 2006-2010 yillarga mo`ljallangan monitoringi dasturini tasdiqlash to`g`risidaògi qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi ñAtrof muhit yevropa uchunò BMT yevropa iqtisodiy komissiyasi Dasturining aôzosidir. Shuning uchun indikatorlarni tanlashda asosan BMT yevropa iqtisodiy komissiyasi va Atrof muhit bo`yicha yevropa agentligining ekspertlari tomonidan qo`llanadigan mezonlardan foydalanildi.

Nazorat qilinayotgan 300 dan ortiq ko`rsatkichlardan 91 ta indikator va bir qator tarmoq indikatorlar foydalanish uchun tavsiya etildi. Ular atmosfera, suv va yer resurslarining holati, chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlash muammolari, bio har xillik, aholi salomatligi va Orol bo`yidagi ekologik vaziyat holatiga baho beradi. Foydalanish uchun tavsiya etilgan  ekologik indikatorlar umumqabul qilingan xalqaro normalarga mos keladi va, bir paytning o`zida. O`zbekistonning eng muhim ekologik ustuvorliklarini aks ettiradi.

Mana shu yondoshuvlarni hisobga olgan holda mintaqa raqobatbardoshligini integral baholash uchun indikatorlarning kompleks tizimi taklif etilmoqda (1.3.1-jadval).

Shunday qilib, taqdim etilgan xarakteristikalar (tavsiflar) asosida quyidagi savollarga javob berish kerak bo`ladi:

- mintaqa iqtisodiyotining qaror topgan tuzilmasi aholi turmush sifatining ayrim tarkibiy qismlariga qanday taôsir ko`rsatadi, bu sohada qanday tendentsiyalar kuzatiladi?

- mintaqa iqtisodiyotining qaror topgan tuzilmasi ekologik holatga qanday taôsir ko`rsatadi, bu sohada qanday tendentsiyalar kuzatiladi?

- iqtisodiyotning qaror topgan tuzilmasi mintaqaviy rivojlanishning asosiy muammolarini qay darajada hal qilish imkoniyatini beradi?

**1.3.1-jadval**

**Mintaqa raqobatbardoshligining integral darajasini baholash indikatorlari tizimi**

| – | Ko`rsatkichlar | Darajalar | | |
|---|---|---|---|---|
| | | past | o`rta | baland |
| **I** | **Iqtisodiy ko`rsatkichlar** | | | |
| | - yalpi mintaqaviy mahsulot | | | |
| | -sanoat ishlab chiqarishi ulushi | | | |
| | -qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi ulushi | | | |
| | -zararga ishlaydigan korxonalar ulushi | | | |
| | - KB va XT subêektlarining aholi jon boshiga miqdori | | | |
| | -chakana tovar almashinuvining o`sishi | | | |
| | -mahsulot eksporti | | | |
| **II** | **Ijtimoiy ko`rsatkichlar** | | | |
| | -yashash darajasi | | | |
| | -turar joy bilan taêminlanganlik | | | |
| | -pulli xizmatlar hajmi | | | |
| | -taêlim darajasi | | | |
| | -kasallanish | | | |
| | -ishsizlik darajasi | | | |
| **III** | **Innovatsion ko`rsatkichlar:** | | | |
| | - ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradigan tashkilotlar soni | | | |
| | -bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmi | | | |
| | -tadqiqotchi-mutaxassislar soni | | | |
| | -innovatsiyaga sarflangan mablag`lar | | | |
| | -yaratilayotgan yangi texnologiyalar soni | | | |
| **IV** | **Tabiiy-geografik ko`rsatkichlar:** | | | |
| | - demografike | | | |
| | - shahar aholisining hissasi | | | |
| | - geografik holat (ekspert baho) | | | |
| | - sug`oriladigan yerlarning aholi jon boshiga taêminlanganligi | | | |
| | -suv resurslari bilan taêminlanganlik | | | |
| | - mineral-xom ashyo resurslari | | | |
| **V** | **Madaniy-tarixiy** | | | |
| | - madaniy-tarixiy yodgorliklarning mavjudligi (ekspert baho) | | | |
| | - sayyohlar soni | | | |
| | - rekreatsion (yopiq) zonalar | | | |
| **VI** | **Ekologik** | | | |
| | - issiqxonalar gazlarining otilib chiqishi | | | |
| | - chiqindilarning otilib chiqishi | | | |
| | - ichiladigan suvning sho`rlanganligi | | | |
| | - yer resurslarining sho`rlanganligi | | | |
| Jami | Ballar | | | |

**Manba:** "O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va

amaliyotò. Monografiya. O`zRFA Iqtisodiyot instituti. T. 2006. 79 s.

## 2 – BOB. MILLIY IQTISODIYOT RIVOJIDA SANOAT KORXONALARI KLASTERLARINING AHAMIYATI

### 2.1.Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini real oshirishi mumkin bo`lgan klasterlarni shakllantirish zaruriyati

Raqobatbardosh tarmoqlarni, yaôni iqtisodiy faoliyat turlarini tanlab olish masalalari yaqin kelajakda O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini real oshirishi mumkin bo`lgan klasterlarni shakllantirish zaruriyati muammosini dolzarb vazifalar qatoriga ko`taradi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvchi obôektlar sifatida raqobatbardosh tarmoqlarni aniqlab olish va rivojlantirish ð respublika iqtisodiy siyosatining eng zarur vositasidir, Biroq milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai nazaridan istiqbolda iqtisodiy faoliyat tarmoqlari va turlarini tanlab olish va rag`batlantirish, boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, «o`sish nuqtalari» hozirgi vaqt uchun noanôanaviy bo`lgan boshqa mezonlar asosida tanlab olinishi lozim.

Etakchi korxonalarning imkoniyatlarini baholash shuni ko`rsatmoqdaki, iqtisodiyotda raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni aniqlash o`zgacha yondashuvni talab etmoqda, sababi hozirgi sharoitlarda bozorning alohida olingan sektorlarida ustunlik qilish ham milliy, ham global darajalardagi raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishishni kafolatlamaydi. Tarmoq bozorning globallashuvi sharo-itlarida milliy korxonalar raqobat kurashini olib borishga qodir bo`lsagina raqobatbardosh bo`la oladi, biroq bunda korxona (kompaniya) transmilliy bo`lishi shart. Bunday holatda korxona oldinroq yaratilgan, yaôni global darajada yetakchi milliy kompaniyalarni yaratish jarayonida davlat tomonidan ko`rsatilgan yordam sifatida baholanuvchi ishlab chiqarish salohiyatiga tayanadi.

Biroq xom ashyo bazasiga asoslanuvchi iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning istiqboli yo`q, sababi yangi raqobatbardosh kompaniyalarni shakllantirish nafaqat xom ashyo, balki barcha intellektual resurslarni ham jalb etishni, yaôni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi.

Globallashuv sharoitida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini eôtiborga olgan holda bozor iqtisodiyotining nazariy asoslarini uning tsiklli rivojlanishi nuqtai nazaridan o`rganishga qiziqish sezilarli darajada oshadi. Fan-

texnika taraqqiyoti masalalari ayniqsa katta qiziqish uyg`otadi, sababi aynan asosiy texnologiyalar mamlakat iqtisodiyoti bilan bir qatorda umuman jahon iqtisodiyotidagi, muayyan bir tarixiy davrda iqtisodiyotning u yoki bu yirik tarmoqlarida foydalaniladigan bazaviy texnologiyalarning texnologik darajasini tavsiflovchi «texnologik uklad»ni belgilab beradi.

Texnologik yondashuv nuqtai nazaridan raqobatbardoshlikni baholash iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi zamonaviy bosqichi uchun ayniqsa katta ahamiyatga zga. Jahon Iqtisodiy Forumining raqobatbardoshlikni baholash indeksi uchta indeks (ularni barqaror raqobatbardosh iqtisodiy o`sishning bosh omillari ham deb atash mumkin); texnologiya, jamiyat institutlari, makroiqtisodiy muhitni umumlashtirish asosida hisoblanadi. Hozirda mamlakatning raqobatbardoshligi uning texnologik jihatdan rivojlanish darajasi, innovatsion rivojlanishga qodirligi orqali aniqlanadi.

Shuni taôkidlash joizki, texnologik rivojlanishning eng istiqbolli yo`nalishlaridan biri klasterlarni shakllantirishdir. M. Porter bo`yicha klaster ð bu muayyan bir tuman yoki mamlakatda raqobat afzalliklariga ega bo`lish maqsadida qaror topgan iqtisodiy jihatdan o`zaro bog`liq bo`lgan firmalar, taôminotchilar, aralash tarmoqlar va tashkilotlardir[10]. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish anôanalaridan kelib chiqqan holda, texnologik (innovatsion) klasterlarning shakllanishi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Jahon tajribasining ko`rsatishicha, ko`plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Yaponiyada milliy in-novatsion tizimlarning (MIT)[11] yaratilishida klasterli metoddan foydalaniladi, misol uchun, bu yondashuv avtomobil sanoatida to`liq joriy etilgan. Masalan, JETRO korporatsiyam 11 klaster yaratgan va ularni muvaffaqiyat bilan rivojlantirmoqda[12]. Shuningdek, tarkiban Rossiyaning naukogradlariga o`xshash hududiy ilmiy-innovatsiya klasterlari yaratilmoqda.

Shuni taôkidlash kerakki, Garvard biznes maktabi maôlumotlariga ko`ra, AQSh iqtisodiyotida 32%dan ziyod bandlikni klasterlar taôminlab beradi (budjet sektoridan

---

[10] Michail E.Porter. The Competetive Advantage of Nations ï US:Free Press, 1998.
[11] [illegible] 2004.
[12] http:jetro.go.jp/en /invest

tashqari). Ayni vaqtda, Shvetsiya iqtisodiyotida klasterlarda garchi ular kamroq ko`lamlarga ega bo`lsada, mehnatga yaroqli aholining 39 % band. Klasterlardagi mehnat unumdorligi darajasi ish haqi miqdorlari o`rtacha mamlakatdagidan ancha yuqori ekanligini taôkidlash joiz. Klasterlar tamoyiliga asosan tashkil etilgan ishlab chiqarish sektorlari mavjud amerika shtatlarida tovar va xizmatlari mintaqada tashqariga eksport qilinadi, ish haqi esa o`rtacha Amerikadagi miqdorlardan 29 % ga ko`proq.

Respublika iqtisodiyotini yaqin istiqbolda industrial innovatsion rivojlantirish uchun YaIMning o`sishiga nisbatan sanoatning o`sish surôatlarini saqlab qolish va yanada oshirish zarur, bunga esa innovatsiya faoliyatini investitsiyalash va klasterlar tuzilmasini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Ilm fanni investitsiyalash dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jadal o`sib bormoqda, ITTKI xarajatlari YaIMga nisbatan foizlarda: AQShda ï 2,55 %, Germaniyada ï 2,26%, Yaponiyada ï 2,78 %, Frantsiyada ï 2,05 %, Italiyada ï 1,13 %, Buyuk Britaniyada ï 2,05 %ni tashkil etadi, modomiki bilimlarning 90 % ga so`nggi 30 yil davomida ega bo`lindi[13].

Zamonaviy bosqichda beshinchi texnologik ukladdan oltinchisiga o`tish asosida milliy iqtisodiyotlarni innvatsion rivojlantirish modeli amalga oshirilmoqda[14]. Bu jihatdan O`zbekistonda iqtisodiyotning milliy intellektual salohiyat va boy tabiiy xom ashyo resurslariga tayanadigan innovatsion modelini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Respublika innovatsion taraqqiyotning ñetib oluvchiò modelidan voz kechib, MITning klasterli tuzilmasini rivojlantirish asosidagi innovatsiya loyihalarini investitsiyalash usulidan ko`proq foydalanishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan texnologik (innovatsion) klasterlar O`zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligining ño`sish nuqtalariò bo`la oladi, ular o`zining universalligi tufayli, butun ishlab chiqarish jarayoniga: tadqiqotlar olib borish, mahsulotni loyihalashtirish va tashkil etishdan boshlab uni ishlab chiqarish va tayyor holda isteômolchiga yetkazib berishgacha bo`lgan jarayonga taôsir ko`rsata oladigan yuqori multiplikativ samaraga ega bo`ladi.

---

13 [illegible] 2008. [illegible] 10

14 [illegible] 2005.

Texnologik klasterlarning o`ziga xos tomoni shundaki, ularning asosini tashkil etuvchi innovatsion texnologiyalardan mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga yordam ko`rsatgan holda, bir-biriga o`xshamagan turli tarmoqlarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari mazkur zamonaviy texnologiyalar ustuvor tarmoqlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, rivojlantirish va qo`llab-quvvatlashga ham o`z hissasini qo`shishi aniq.

Texnologik klasterlarning asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni sanab o`tamiz:

- tavsiya etiladigan xizmatlar isteômolchilarini kengaytirishdan manfaatdor bo`lgan korxonalarni mulk shakliga va ko`lamlarini eôtiborga olmagan holda innovatsion texnologiyalar egalari bo`lgan korxonalar klasteri doirasiga kooperatsiyalash;
- klasterda jahonning eng yaxshi innovatsion texnologiyalari asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi texnologik zanjirni yaratish, yagona texnologik platformani qaror toptirish;
- diversifikatsiyalangan tarmoqlar bo`yicha tovar ishlab chiqaruvchilariga kompleks texnologik xizmatlar ko`rsatish;
- klaster ichidagi korxonalar va klaster xizmatlari isteômolchilari o`rtasida samarali hamkorlikni amalga oshirish;
- ham sifat, ham miqdor jihatdan mavjud texnologilarning muntazam rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, klasterning texnologik imkoniyatlari turlarini kengaytirish;
- klasterdagi ishtirokchi korxonalarning texnologik imkoniyatlarini strategik rivojlantirish yo`nalishlarini ishlab chiqish.

Oxirgi o`n yillikda texnologik (innovatsion) klasterlarni yaratishga qiziqish ancha o`sdi. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlar tomonidan milliy iqtisodiyotlarni iqtisodiy rivojlantirishga kompaniyalar, tarmoqlar yoki sektorlarning anôanaviy guruhlarga birikishi orqali emas, balki klasterlarni yaratish nuqtai nazaridan qaraladigan bo`ldi. Iqtisodiyotning klasterli tuzilmasi raqobat xususiyati bilan va raqobat ustunligiga erishish manbalari bilan yanada yaxshiroq uyg`unlashadi, yaôni klaster doirasidagi ishtirokchilar bir-biri bilan bevosita raqobatlashmaydi, sababi ular turli tarmoqlarga xizmat ko`rsatadilar. Klaster faoliyat ko`rsatish

sharoitlarini yaxshilashga yo`naltirilgan davlat va xususiy investitsiyalar iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha subôektlariga foyda keltirishini unutmaslik lozim.

Taôkidlash joizki, texnologik (innovatsiya) klasterlarni yaratishning afzal tomonlari milliy iqtisodiyotning kelgusidagi raqobatbardoshligini taôminlash va kuchaytirish nuqtai nazaridan aniq namoyon bo`ladi, chunki klasterning umuman ishlab chiqarish samaradorligiga taôsir ko`rsatish darajasi uni shakllantirishning eng muhim mezoni bo`lib hisoblanadi.

Jahon tajribasidan foydalanib, respublikada innovatsion tarmoqlararo sanoat (ITSK) va hududiy klasterlarni (IHK) rivojlantirish negizida MITning raqobatbardosh tuzilmasini yaratish mumkin. Ularning vazifasi innovatsiyalarni jamlash va ularning natijalarini tijoratlashtirishdan iboratdir. Bunday vaziyatlarda innovatsion loyihalarga investitsiya kiritish, zamonaviy ilmiy-innovatsion, investitsiya-moliyaviy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni kompleks rivojlantirish mumkin, ular esa bir butun qilib birlashtirilgan klasterlar tuzilmasi shaklida respublika MIT doirasida rivojlanishi mumkin.

## 2.2. Xorazm viloyatining sanoat salohiyati va unda klasterlarni shakllantirish imkoniyatlari

Xorazm viloyati sanoat salohiyatining rivojlanish darajasi nisbatan past bo`lgan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatning sanoat tarmog`ida asosan kishloq xo`jalik xom-ashyosini birlamchi qayta ishlash, xususan paxta tozalash sanoati ustunlik qiladi. Viloyatning sanoat ishlab chiqarish darajasi (aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi) Qoraqalpog`iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatiga nisbatangina yuqori hisoblanadi. Hududda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o`rtacha respublika ko`rsatkichiga nisbatan 2000 yildan buyon pasayish tendensiyasiga ega bo`lgan. So`nggi uch yilda mazkur ko`rsatkichning o`sishi kuzatilayotgan bo`lsada, uning hajmi respublikaning o`rtacha ko`rsatkichidan 3,3 barobar pastligicha qolmoqda (2.2.1-chizma).

**2.2.1-chizma**

**2013 yilda O`zbekiston mintaqalarida sanoat ishlab chiqarish hajmi (aholi jon boshiga, mln. so`mda)**




**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda ushbu sohada mehnat unumdorligi o`sish

tendensiyasiga ega bo`lmoqda. Viloyatda yengil sanoat, shu jumladan paxta tozalash va un-yorma sanoati mehnat unumdorligi nisbatan yuqori ko`rsatkichlarga ega bo`lgan asosiy tarmoqlardir. Ammo viloyat umumiy sanoat ishlab chiqarish bo`yicha respublikada Surxondaryo, Jizzax va Namangan viloyatlari kabi mehnat unumdorligi darajasi past bo`lgan hudud hisoblanadi.

Engil sanoat mahsulotlariga talab ortib borayotganiga qaramasdan, mintaqaning mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ichki bozor talabini qondirish darajasi pastligicha qolmokda. Gilamchilik buyumlari, mato va ip-kalava, erkaklar kostyumi, kurtkalar, poyabzalga bo`lgan ehtiyoj ichki ishlab chiqarish evaziga qisman kanoatlantirilmoqda, xolos (**2.2.1-jadval**). Mintaqa ehtiyoji uchun zarur bo`lgan isteъmol tovarlarining asosiy qismi mamlakatning boshqa hududlari va import hisobidan qoplanmoqda, YUqori sifatli xom-ashyo hisoblangan jun va teri (Qo`shko`pir va Bog`ot tumanlari) chuqur qayta ishlanmayapti va ular, birlamchi ishlov berilgach, Rossiyaga, boshqa qo`shni davlatlarga xom-ashyo sifatida eksport qilinmoqda. Vaholanki, viloyatda ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish imkoniyati mavjud.

**2.2.1. – jadval.**

**Xorazm viloyati aholisining yengil sanoat mahsulotlari bilan o`zini o`zi ta'minlash darajasi, %**

| **Tovarning nomi** | **O`lchov birligi** | **Viloyat ehtiyoji** | **2013 yildagi ishlab chiqarish hajmi** | **O`zida ishlab chiqarish hisobidan ehtiyojni qondirish, %** |
|---|---|---|---|---|
| Gilam va gilamchilik buyumlari | mln. kv. m | 673,5 | 619,9 | 92,0 |
| Erkaklar kostyumi | ming dona | 101,0 | 66,2 | 65,5 |
| Gazlama | ming kv m | 11785,9 | 3814 | 32,4 |
| Ip | ming kv m | 18520,7 | 4396,5 | 23,7 |
| Kurtka | ming dona | 151,5 | 23,7 | 15,6 |
| Erkaklar ich kiyimi | ming dona | 5556,2 | 82,7 | 1,5 |
| Poyabzal | ming juft | 4040,9 | 36,6 | 0,9 |
| SHim | ming dona | 404,1 | 0,6 | 0,1 |
| Paypoq | ming juft | 9765,5 | 5,9 | 0,1 |

**Manba**: Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi maъlumotlari asosida tuzilgan

Umuman olganda, Xorazm viloyati sanoatining bugungi holati sohani modernizasiya qilish va diversifikasiyalash ishlarini jadal olib borishni talab etadi. Bu, bir tomondan, sanoatning paxta tolasi ishlab chiqarishga yo`naltirilgani, ikkinchi tomondan esa,

investisiya loyihalarida hududning o`ziga xos tabiiy va iqtisodiy jihatlari yetarli darajada eʼtiborga olinmayotganligi bilan bog`liqdir. Mintaqada investision faollikni oshirish evaziga hududlar uchun noanʼanaviy yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish borasida bir qator muammolarni yechish zarur bo`ladi. Ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat:

✓ loyihalarni tanlashda mahalliy tovarlarga talab va ehtiyojni o`rganish bo`yicha marketing ishlari olib borilmayotganligi natijasida mahsulotlar raqobatdoshligini taʼminlovchi omillar yetarli darajada o`rganilmayapti va oqibatda samaradorligi yaxshi o`rganilmagan loyihalar kasodga uchramoqda;

✓ energiya taʼminotidagi uzilishlar natijasida ko`plab tadbirkorlar sanoat ishlab chiqarishiga oid loyihalardan ko`ra, energiya kam talab qiladigan xizmat turlariga oid loyihalarni afzal ko`rishmoqda. Bu holat hududiy sanoatni rivojlantirishda mahalliy tashabbuskorlikni so`ndirmoqda;

✓ ko`plab qishloq tumanlarida ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi natijasida sanoatda mahsulotlarni saralash, tashish va saqlash kabi xizmat turlariga xarajatlar ortib bormoqda va bu holat mahsulotlar tannarxining oshishiga, pirovardida esa ularning raqobatdoshligi pasayishiga olib kelmoqda;

✓ yuqori malakali kadrlarning viloyat va respublikadan tashqariga chiqib ketishi natijasida yangi investision loyihalarni amalga oshirishda malakali muhandis-texnolog va texnik kadrlar taqchilligi muammosi kelib chiqmoqda;

✓ yirik korxonalar, kichik biznes va oliy o`quv yurtlari o`rtasida innovasion g`oyalarga asoslangan loyihalar ustida hamkorlik va kooperasiya aloqalarining o`rnatilmaganligi sanoat sektorining sust rivojlanishida asosiy sabablardan biri sifatida namoyon bo`lmoqda.

Texnologik taraqqiyot darajasini oshirish viloyatda sanoat sohasida amalga oshiriladigan tarkibiy o`zgarishlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Respublika miqyosida olib qaraganda, Xorazm viloyati sanoatida asosiy fondlar konsentrasiyasi (respublika sanoatida asosiy fondlar umumiy qiymatining 0,9 foiziga teng) nisbatan past hisoblanadi. Ammo modernizasiya darajasining hozirgi holati ishlab chiqarish fondlari texnik jihatdan yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa kapital mablag`larni yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o`zlashtirish, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni

texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga yo`naltirish bilan bog`liqdir. Ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilg`or texnika va texnologiyalarni joriy etish, mashina hamda uskunalarni jadal yangilash hisobidan Xorazm viloyati 2013 yilda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish ko`rsatkichi bo`yicha Toshkent shahri, Samarqand, Andijon va Namangan viloyatlari bilan bir qatorda yetakchi o`rinni egalladi.

Sanoatning asosiy fondlari umumiy qiymatida mashina va uskunalar ulushi 2013 yilda 37,5 foizni tashkil etib, tahlil qilinayotgan davrda 6,0 foizga o`sgani ham modernizasiya jarayoni ijobiy davom etayotganini ko`rsatmoqda. Ushbu ko`rsatkichning 2,3 foizi yangi mashina va uskunalar hisobiga to`g`ri keladi. Mashina va uskunalarni yangilash koeffisenti (10,1%) ularni hisobdan chiqarish koeffisentiga qaraganda (2,4%) ancha yuqoriligi sanoatni modernizasiya qilish borasida ijobiy jarayonlar kuzatilayotganligini ko`rsatadi.

Viloyatda mashina va uskunalarning eskirish darajasi o`rtacha respublika ko`rsatkichidan[15] past bo`lishiga qaramasdan, umumiy asosiy fondlarning eskirish darajasi yuqoriligicha qolmoqda va bu ishlab chiqarish binolari hamda inshootlari haddan tashqari eskirganligidan darak beradi. Bunday holat ishlab chiqarishda material, energiya va mehnat sarfining oshishiga, tovar sifati va korxonalarning to`lovga layoqatlilik darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

Sanoat salohiyati tahlili tumanlar o`rtasida ushbu sohaning rivojlanish darajasida katta tafovut va nomutanosibliklar borligini ko`rsatmoqda. Mavjud tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmaslik natijasida hududlarda sanoat tarkibiy jihatdan bir yoqlama rivojlanmoqda. Natijada viloyatning barcha tumanlarida ishlab chiqarish xajmi mamlakat sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 0,5 foizidan oshmayapti (**2.2.2-jadval**).

SHu bilan birga, sanoatning hududiy muvozanatlashmaganini aksariyat ishlab chiqarishlarning Urganch shahrida (27,7%), Xonqa (13,6%), SHovot (9,2%) va Bog`ot tumanlarida (9,0%) jamlangani bilan ifodalash mumkin. Aynan ushbu tumanlarda respublika ahamiyatiga molik bo`lgan ishlab chiqarish korxonalari joylashganligi tufayli

[15] Yirik korxonalar ma`lumotlari asosida

viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 55 foizdan ortig`i ular hissasiga to`g`ri keladi (**2.2.4-jadval**).

**2.2.2. – jadval.**

**Hududlardagi sanoat ishlab chiqarishi past darajali tumanlar soni, o`rtacha respublika hajmiga nisbatan %da**

| Hududlar nomi | 2000 y. | | | 2005 y. | | | 2013 y. | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 0,5 foizdan kam | 0,5 foizdan 1 foizgacha | 1 foiz va undan yuqori | 0,5 foizdan kam | 0,5 foizdan 1 foizgacha | 1 foiz va undan yuqori | 0,5 foizdan kam | 0,5 foizdan 1 foizgacha | 1 foiz va undan yuqori |
| Qoraqalpog`iston Respublikasi | 14 | | | 14 | | | 14 | | |
| **Viloyatlar** | | | | | | | | | |
| Andijon | 12 | 2 | | 14 | | | 13 | | 1 |
| Buxoro | 10 | | 1 | 10 | | 1 | 10 | | 1 |
| Jizzax | 12 | | | 12 | | | 12 | | |
| Qashqadaryo | 11 | | 2 | 11 | | 2 | 11 | | 2 |
| Navoiy | 8 | | | 8 | | | 8 | | |
| Namangan | 9 | 2 | | 11 | | | 11 | | |
| Samarkand | 15 | | | 14 | | | 12 | 2 | |
| Surxondaryo | 12 | 2 | | 14 | | | 13 | | |
| Sirdaryo | 4 | 5 | | 8 | | | 7 | 1 | |
| Toshkent | 12 | 2 | 1 | 14 | 1 | | 10 | 2 | 2 |
| Fargona | 13 | 2 | | 14 | 1 | | 14 | 1 | |
| Xorazm | | 1 | | 10 | | | 10 | | |
| **O`zbekiston Respublikasi** | **141** | **16** | **4** | **154** | **2** | **3** | **145** | **6** | **6** |

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tuzilgan

Tahlildan ko`rinib turibdiki, YAngibozor (3,6%), Xiva (4,2%), Urganch (4,5%) va Qo`shko`pir (4,8%) tumanlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi nihoyatda past darajada qolmoqda. Ushbu hududlarda infratuzilma bilan ta`minlanish darajasi yaxshi emasligi va moddiy-texnika bazasining rivojlanmagani ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga to`sqinlik qilmoqda. Mazkur tumanlar, asosan paxta tozalashga, qurilish materiallari va eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan,

xolos. Bu holat ularning sanoat darajasi past hududlar sirasiga kirishiga sabab bo`lmoqda.

**2.2.3. – jadval.**

**Tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'm**




**Manba:** Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi maὀlumotlari asosida tuzilgan

Viloyatning ustuvor imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali (qishloq xo`jaligi salohiyati, mehnat resurslari, rivojlangan turizm salohiyati) mintaqada bevosita kichik biznes subὀektlari tomonidan oziq-ovqat, qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo`jalik texnikalarini taὀmirlashni yo`lga qo`yish mumkin. Mintaqada yirik korxonalarning mavjudligi esa ularni jahon standartlariga muvofiq texnik va texnologik yangilash, yuqori darajada rivojlangan infratuzilmani shakllantirish, ushbu korxonalar asosida sanoat klasterlari shaklida «rivojlanish nuqtalari»ni tashkil etish hamda texnologik jihatdan uzviy bog`langan tarmoqlarni jadal rivojlantirish imkonini beradi.

**2.2.4-jadval**

**Tumanlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha viloyatdagi ulushi, %**




**Manba:** Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzilgan

**Sanoatni uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish imkoniyatlari.** Viloyatda sanoat ishlab chiqarish darajasining nisbatan pastligiga uning markazdan olisligi, foydali qazilma boyliklarining deyarli yo`qligi, uskunalarning eskirganligi va xom-ashyo yetishmasligi bois ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining talab darajasida emasligi sabab bo`lmoqda. Ishlab chiqarishni bir yoqlama (ko`proq paxta tozalash sohasiga) yo`naltirilgani, sanoat obʼektlarining shahar va tumanlar kesimida nomutanosib joylashganligi, tovarlarning ichki va tashqi bozorlarda yetarli darajada raqobatbardosh emasligi isteʼmol tovarlari bilan aholining o`zini o`zi taʼminlash darajasi qoniqarsiz bo`lishiga olib kelmoqda.

SHunday bo`lsada, viloyatda resurslarning hali foydalanilmagan zaxira va imkoniyatlari ko`p. Istiqbolda sanoatni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi muhim manbalar mavjud:

Sanoatning ishlab chiqarish bazasida yirik mashinasozlik (Hazorasp tumani va Urganch shahri), paxta tozalash (Bog`ot, Gurlan, Qo`shko`pir, Hazorasp, Xonqa, SHovot, YAngiariq va YAngibozor tumanlari), oziq-ovqat (Urganch shahri, Hozarasp tumani) sanoati korxonalari, shuningdek Tuyamo`yin GRESi faoliyat ko`rsatishi viloyatda sanoat ishlab chiqarishini keng qamrovli tus oldirishda mustahkam asos bo`lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarishni jadal modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash sharoitida korxonalarning to`liq kuvvat bilan ishlashini taʼminlash, mahalliy

ishlab chiqarishni kengaytirish, jumladan kichik biznes bilan yirik korxonalar o`rtasida kooperasiya aloqalarini rivojlantirish;

Paxta yetishtirish uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligi bois paxta tozalash sanoatining ixtisoslashuvini hisobga olgan holda (Gurlan, Bog`ot, Xonqa, SHovot, Qo`shko`pir va Urganch tumanlari) yuqori qo`shilgan qiymatga ega tayyor to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish;

Meva-sabzavotlar yetishtirishda qishloq xo`jaligining katta salohiyatga ega ekanligi (SHovot, Urganch, Xiva, Xonqa va Bog`ot tumanlari) va chorvachilikning rivojlangani (Urganch, Hazorasp, SHovot, Qo`shko`pir va Bog`ot tumanlari) chuqur qayta ishlash asosida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish imkonini beradi. Masalan, qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish natijasida meva-sabzavot konservalari, sharbat va pyure, tomat pastasi, quritilgan mevalar, taomlar uchun turli xil ziravorlar, go`sht mahsulotlari va konservalar, bolalar quruq aralashmalari, quruq va quyultirilgan sut, muzqaymoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish;

Viloyat hududida tabiiy ravishda o`sadigan qimmatbaho qizilmiya o`simligini qayta ishlash asosida dori preparatlari, to`qimachilik uchun bo`yoqlar, oziq-ovqat sanoati uchun turli qo`shimcha va yarim fabrikatlar ishlab chiqarish (YAngibozor, Gurlan va SHovot tumanlarida);

Jun va teriga birlamchi ishlov berish borasida ko`p asrlar davomida shakllangan anЂana va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tajribasi hamda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish. Ularni chuqur qayta ishlash asosida yuqori sifatli, tannarxi arzon gilamlar va gilamchilik mahsulotlari, jun ko`rpa, ro`mollar (Qo`shko`pir, Bog`ot, Hazorasp va YAngiariq tumanlari), shuningdek, charm kamar, sumka, kurtka va akssesuarlar (Gurlan, Bog`ot va Hazorasp tumanlari) ishlab chiqarish;

Gilam to`qish, ipakdan turli mahsulotlar tikish, naqqoshlik, metall va yog`ochga ishlov berish, suvenir tayyorlash, savat to`qish (Xiva, YAngiariq, Qo`shko`pir va Xonqa tumanlari) kabi xunarmandchilik turlarining mavjudligi hamda aholining tadbirkorlikka bo`lgan moyilligining yuqoriligini hisobga olgan holda yangiliklarni joriy etish markazlarini tashkil etish va shu yo`l bilan yangi turdagi mahsulotlarning mahalliy brendlariga ega bo`lish;

Xorazm viloyatiga yaqin joylashgan hamda mashinasozlik, kimyo mahsulotlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish bo`yicha muayyan ustuvorliklarga ega bo`lgan mintaqalarning salohiyatidan foydalangan holda, mintaqalararo loyihalarni amalga oshirish (o`zaro hamkorlik asosida Qoraqalpog`iston Respublikasining foydali qazilma konlaridan va tobora rivojlanib borayotgan «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy hududi logistika markazidan foydalanish);

Mavjud zaxiralardan, salohiyat va raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, hududlar uchun noanôanaviy o`rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni o`zlashtirish imkonini berib, viloyatning sanoat salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatining salohiyati va raqobat ustunliklarini inobatga olgan holda, viloyatni uzoq muddatli rivojlantirishning to`rtta asosiy yo`nalishlari aniqlandi (**2.2.2-chizma).**

Birinchi yo`nalish, yaôni viloyatning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishning o`sish nuqtalarini tashkil etish industrial salohiyati nisbatan rivojlangan, maôlum darajada yuqori texnologiyalarga ega, taôlim va kadrlar salohiyati hamda resurs imkoniyatlari kengroq bo`lgan hududlarga mos keladi (Urganch shahrida - elektron texnika, Bog`ot va SHovot tumanlarida - to`qimachilik, Hazorasp tumanida - mashinasozlik va boshqalar).

Ikkinchi yo`nalish uzviy bog`langan sohalar va yordamchi ishlab chiqarishlarni (shuningdek, autsorsing xizmatini) qo`shimcha qiymat yaratilishining zanjirsimon bog`lanishi negizida rivojlantirish va shu asosda mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash imkoniyatlari mavjud bo`lgan tumanlarga xosdir. Ushbu yo`nalish tayyor isteômol tovarlari ishlab chiqarishni Bog`ot, Xonqa, YAngiariq va SHovot tumanlarida, yengil va oziq ovqat sanoatiga oid ko`plab loyihalarni Urganch shahri, Xiva, Qo`shko`pir, YAngiariq, Xonqa va Hazorasp tumanlarida, tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqarishni esa Urganch tumanida rivojlantirishni nazarda tutadi.

**2.2.2. – chizma.**

**Sanoatni rivojlantirishning strategik yo`nalishlari**




Uchinchi yo`nalishdan ko`zlangan asosiy maqsad, eng avvalo, viloyatning ustun jihatlaridan biri bo`lgan mahalliy tashabbuskorlikka kengroq imkoniyat yaratish maqsadida mintaqalararo loyihalarni amalga oshirishdir. Bu borada mamlakatning boy tabiiy xom-ashyo resurslariga ega bo`lgan mintaqalari (Qoraqalpog`iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va boshqa viloyatlar)ning o`ziga xos qiyosiy ustunliklaridan Xorazm viloyatining iqtisodiyotini rivojlantirishda kengroq foydalanish mo`ljallanmoqda. Mintaqalararo hamkorlik mashinasozlik sohasida Toshkent shahri, Andijon va Samarqand viloyatlari bilan, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda Navoiy na Buxoro viloyatlari, qurilish materiallari ishlab chiqarishda esa Qoraqalpog`iston Respublikasi bilan xo`jalik aloqalarini o`rnatishni talab etadi.

Bunda iqtisodiy rivojlanishda ortda qolayotgan, resurs va infratuzilma bilan yetarli darajada taôminlanmagan hududlarni ham industrial jihatdan rivojlantirish maqsadida mavjud nomutanosibliklarni qisqartirish imkonini beradigan hududlararo loyihalarni amalga oshirish, eng avvalo, sanoati past darajada rivojlangan tumanlarning xom-ashyo resurslari, ishlab chiqarish, mehnat salohiyati va boshqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiy jihatdan nisbatan yaxshi rivojlangan tumanlar bilan hududlararo loyihalar asosida bog`lash nazarda tutiladi. Bu esa, o`z navbatida, ishlab chiqarish darajasiga ko`ra tumanlararo tafovutni qisqartirish imkonini beradi.

**2.2.3. – chizma.**

**Ishlab chiqarishni rivojlantirishning tayanch nuqtalarini tashkil etish xususiyatlari.**




**Ishlab chiqarishni rivojlantirishda o`sish nuqtalarini shakllantirish** yuqori o`sish surʼatiga ega bo`lgan va qo`shni hududlarning rivojlanishiga o`z taʼsirini o`tkaza oladigan markazlar, eng avvalo, sanoat markazlari va zonalarini tashkil qilishni nazarda tutadi. O`sish nuqtalarida, maʼlum yo`nalishlarga ixtisoslashgan ishlab chiqarish subʼektlarini bir markazda jamlagan holda, hududiy komplekslar yoki klasterlar shaklida ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishda o`sish nuqtalarini tashkil qilish tarmoqlar unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish va innovasion salohiyatni kuchaytirish uchun sharoit yaratish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag`batlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko`maklashadi (**2.2.3-chizma**). O`sish nuqtalarini shakllantirish asosini mintaqa sanoatini ixtisoslashtirishda tayanch vazifasini bajaruvchi hamda texnologik jihatdan raqobatdosh korxonalar tashkil etadi.

O`sish nuqtalarining shakllantirilishida hududlarning raqobat ustunliklarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu o`rinda viloyat hududlarining qiyosiy ustunliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Respublikaning boshqa ko`plab hududlari singari Xorazm viloyati ham paxta tolasini chuqur qayta ishlash borasida ustunliklarga ega. Bu to`qimachilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qiladi. Bog`ot va SHovot tumanlari to`qimachilik sohasini rivojlantirishda qiyosiy ustunliklarga ega, yaʼni ularda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarayotgan «Bog`ottekstil», «Uztex Shovot» qo`shma korxonalari, «Kotton teks», «Kobo teks», «Darital teks» MCHJlari kabi to`qimachilik sanoati korxonalari hamda paxta tozalash korxonalari faoliyat ko`rsatadi. YUqorida aytib o`tilgan tumanlarda to`qimachilik sanoatining tovar turlarini ko`paytirish imkonini beradigan, xo-mashyo xarid qilishdan raqobatdosh tayyor mahsulotlarni sotishgacha bo`lgan jarayonlarni o`z ichiga oladigan yagona to`qimachilik komplekslarini tashkil etish imkoniyati mavjud.

Paxta tolasidan tashqari viloyatda yetarli darajada pilla, jun, teri va qorako`l terilari yetishtirilishi tegishli yo`nalishlarda tikuvchilik va trikotaj korxonalarini tashkil etish imkonini beradi. Buning uchun mintaqada texnik va texnologlar, dizaynerlar, modeler-konstruktorlar va mahalliy mutaxassislarni tayyorlashga jiddiy eʼtibor qaratish kerak bo`ladi.

Viloyatda aholining zich joylashgani, infratuzilma va ishlab chiqarish bazasining mavjudligini inobatga olgan holda tashkil etilgan «GM O`zbekiston» korxonasi filiali (Hazorasp tumani) uzoq muddatli istiqbolda Xorazm viloyatida avtomobilsozlikni keng rivojlantirishga xizmat qiladi. Hazorasp tumanining Pitnak shahri viloyatda mashinasozlikni rivojlantirish bo`yicha o`sish nuqtasiga aylanishi hududda mavjud ko`plab bo`sh yotgan bino va inshootlardan ishlab chiqarish bazasi sifatida samarali foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari hududdagi kichik korxonalar tomonidan yirik biznes bilan yaqin hamkorlikda butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish natijasida mashinasozlik tarmog`ini diversifikasiya qilish imkoni tug`iladi.

Mintaqada sanoatni rivojlantirish uchun hududning ishlab chiqarish va infratuzilma obʼektlari (yo`llar, ishlab chiqarish obʼektlari, energiya taʼminoti va h.k.) bilan taʼminlanganligi, aholida tadbirkorlik va mahalliy tashabbuskorlikka moyillikning

kuchliligi, yuqori malakali kadrlarning tayyorlangani, yoshlarda aniq fanlarga qiziqish va texnik mutaxassisliklarni egallashga intilish nisbatan yuqoriligi sanoatning aynan yuksak malaka va bilim talab qiladigan sohalarini (mashinasozlik, radioelektronika, kimyo texnologiyasi va boshqalar) rivojlantirishga asos bo`ladi.

Kelajakda mashinasozlik klasterini yaratish, elektronika va elektr texnika sohasini rivojlantirish sanoatning asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib, u yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Elektronika va elektr texnikani rivojlantirish darajasi hududning sanoat salohiyatini, mehnatni intellektuallashtirish hamda axborot-kommunikasiya sohasini kengaytirish hisobiga aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoit yaratish imkoniyatlarini belgilab beradi. Tegishli ishlab chiqarish salohiyati, tadbirkorlik faolligi, taʼlim olish imkoniyatlari va kadr resurslari, infratuzilma va savdo obʼektlarining mavjudligi asosan Urganch shahrida elektr texnika tovarlari, maishiy elektr buyumlar, quyosh kollektorlari, televizor va monitor hamda boshqa tovarlar ishlab chiqarish borasidagi rivojlantirish nuqtalarini tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur yo`nalish uzoq muddatli istiqbolda respublika ahamiyatiga ega yirik loyihalarni yaratish shaklida amalga oshirilib, u nafaqat viloyat aholisining o`sib borayotgan ehtiyojini taʼminlash, balki bu tovarlarni qo`shni hududlar va xorijiy mamlakatlarga eksport qilishga imkoniyat yaratadi.

Rivojlanishning o`sish nuqtalarini tashkil etishga doir yo`nalishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (**2.2.5-jadval**).

**2.2.5. – jadval.**

**Rivojlanishning o`sish nuqtalarini aniqlash bosqichlari**

| **Davr** | **Faoliyat turi** | **Tadbir** |
|---|---|---|
| **I-bosqich** (2015-2018 y.) | Tashkiliy | 1. Faoliyat ko`rsatayotgan («Bog`ottekstil» QK, «Kotton teks», «Kobo teks», «Darital teks» MCHJ, «Uztex Shovot» QK) korxonalar va SHovot podshipnik zavodini modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlash;<br>2. Tegishli ishlab chiqarish, transport, bozor, muhandislik-texnik va ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish; Urganch Davlat universiteti qoshida biznes bilan yaqin hamkorlik qilish maqsadida tajriba-ishlab chiqarish markazini tashkil etish;<br>3. mahalliy xom-ashyodan foydalanish negizida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish asosida O`zbekistonning boshqa hududlari bilan integrasion aloqalar o`rnatish; |

| | | |
|---|---|---|
| | | 4. ishlab chiqarish jarayoniga, kam quvvatli korxonalar va faoliyat ko`rsatmayotgan obʼektlardan foydalangan holda, kichik biznes subʼektlari va uy xo`jaliklarini keng jalb qilish;<br>5. viloyatda logistika xizmatini rivojlantirishning imkoniyatlarini aniqlash va ana shunday markazlar tashkil etish loyihalarini tayyorlash;<br>6. mahalliy mahsulotga nisbatan ichki va tashqi talabni o`rganish, eng muhim mahsulot turlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish loyihalarini yaratish;<br>7. zamonaviy uskunalar va ilg`or texnologiyalar, materialshunoslik, nanomateriallar texnologiyasi, energiya va resurs tejaydigan jarayonlar, axborot va hisoblash tizimlarini biladigan yuqori malakali kadrlarga bo`lgan talabni baholash, shuningdek, ularni mahalliy kollejlar, universitet, poytaxt va qo`shni hududlardagi oliy o`quv yurtlarida tayyorlash. |
| **II-bosqich** (2019-2025 y.) | Indu strial | ▪ xorijiy investorlar, korxona va aholi mablag`larini jalb etgan holda, mahalliy xomashyo va resurslarni chuqur qayta ishlash negizida respublika miqyosidagi istiqbolli hamda hududiy loyihalarni amalga oshirish;<br>▪ texnika va texnologiyalar, shu jumladan nanotexnologiyalar sohasida mamlakatimiz va jahonning ilg`or yutuqlarini amaliyotga joriy etish;<br>▪ mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi tashkilotlarda shartnoma asosida kadrlar tayyorlash. |
| **III - bosqich** (2025-2030 y.) | Innova-sion | ▪ mahsulotlarning har jihatdan qulayligi va jozibadorligini taʼminlaydigan turli xususiyatlarga ega tovarlar (o`tga chidamli, bioaktiv va boshqa) ishlab chiqarish bo`yicha ilg`or texnologiyalarni joriy etish;<br>▪ ilmiy-texnik va innovasion ishlanmalar yaratish maqsadida Xorazm viloyati va Toshkent shahridagi biznes, tadbirkorlik sohasi vakillari, oliy o`quv yurtlarining yaqin hamkorligi asosida innovasion infratuzilmani shakllantirish. |

Mazkur yo`nalishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish barobarida quyidagi vazifalar ham hal etiladi:

- mavjud ishlab chiqarish bazasini modernizasiya qilish va kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, kam quvvatli va faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- tabiiy resurs va iqtisodiy salohiyatdan (qishloq xo`jaligi, mehnat resurslari va h.k.) samarali foydalanish;

- qayta ishlashni chuqurlashtirish va ishlab chiqarishni diversifikasiyalash asosida yakuniy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirish;

- xom-ashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish

bo`yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarni, oilaviy biznesni rivojlantirishni rag`batlantirish;

- zamonaviy texnika va texnologiyalar, nou-xau va yangiliklarni keng joriy etish hisobidan mintaqada raqobatdosh ishlab chiqarishni shakllantirish;

- investisiyalarni, shu jumladan aholi va chet ellik hamkorlar mablag`larini ishlab chiqarishni rivojlantirishga jalb qilish; kadrlar muammosini yechish, tarmoqlarning yuqori malakali xodimlar, boshqaruv rahbarlari va barcha texnologik yo`nalishlar bo`yicha asosiy va qo`shimcha ishchilarga bo`lgan talabini qondirish; zamonaviy va istiqbolli mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish vazifalarini hal ztishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni ishlab chiqarish, konstruktorlik, texnologik va diplom oldi amaliyoti paytida jiddiy tayyorgarlik, professional darajada ishlash ko`nikmalariga ega bo`lishini o`z ichiga olgan oliy ta'limning ko`p bosqichli dasturi asosida o`qitish;

- brend mahsulotlari yaratishni rag`batlantirish, ularni viloyat va uning tashqarisidagi iste'mol bozorlarida taklif ztishga ko`maklashish; tarmoq korxonalari o`rtasida kooperasiya aloqalarini o`rnatish, aralash ishlab chiqarishni qo`shilgan qiymat yaratilishining zanjirsimon bog`liqligi asosida tashkil etish va bu borada axborot almashuvini yo`lga qo`yish;

- korxonalarda ISO standartini joriy etish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati nazoratini kuchaytirish, ularning raqobatdoshligini oshirish choralarini ko`rish;

- sohalarning taqqoslama ustuvorliklarini ta'minlash maqsadida ichki va tashqi bozorlarni, bozor konyunkturasi o`zgarishini muntazam monitoring qilib borish;

- ishlab chiqarishni modernizasiya qilish asosida imitasion va innovasion rivojlanish bo`yicha loyihalarni tanlashda texnik va maslahat yordami ko`rsatish, eksportchi korxonalar uchun mumkin bo`lgan barcha imtiyoz va preferensiyalarni joriy etish, ularga xorijiy investorlar, sheriklar topishda ko`maklashish;

- mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining global sanoat guruhlari va transmilliy korporasiyalar bilan amaliy hamkorligini rivojlantirishda Xorazm viloyatiga oid segmentlarni aniqlashtirish;

- ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari ahamiyatini kuchaytirish.

Startegiyada «O`sish nuqtalari»ni aniqlash bilan bir qatorda texnologik jihatdan uzviy bog`langan sohalar va yordamchi tarmoqlar (autsorsing xizmatlari) faoliyatini rivojlantirish masalalariga ham dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda mintaqaviy ishlab chiqarish xom-ashyosi birlamchi ishlov berishga qaratilgani va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmagani bois viloyat sanoati boshqa hududlarga nisbatan yetarli raqobatbardoshlikka ega emas. SHuning uchun xam mintaqada mahalliy tashabbuskorlikni kengaytirish negizida tadbirkorlarni texnologik bog`liq sohalarda bir-birlari bilan aloqa o`rnatishlari hamda ularga zarur bo`lgan autsorsing xizmatlarini tashkil etish masalasini tizimli yo`lga qo`yish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv yirik ishlab chiqarish birlashmalari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subȏektlari o`rtasida xom-ashyo sotib olishdan tortib, raqobatdosh tayyor mahsulotlarni qo`shilgan qiymat yaratilishining zanjirsimon bog`liqligi asosida ishlab chiqarishgacha bo`lgan to`liq texnologik jarayonni o`z ichiga oladi. Bu, o`z navbatida, ishlab chiqarishni tashkil etishda kooperasiya aloqalarini o`rnatish, nafaqat mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, balki xom-ashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, hudud iqtisodiyotida sanoatlashtirish ko`lamini kengaytirishga ko`maklashadi.

Istiqbolda Bog`ot va SHovot tumanlarida tashkil etiladigan to`qimachilik komplekslari doirasida Xiva, Hazorasp, Qo`shko`pir, Xonqa, YAngiariq, Gurlan va YAngibozor tumanlarida yordamchi ishlab chiqarish sohalarini va sanoatga autsorsing xizmatlari ko`rsatishni tashkil etish mumkin. Bundan tashqari, mashinasozlik klasterini shakllantirish Urganch shahri, Bog`ot, SHovot, Xonqa, Urganch, Qo`shko`pir va YAngiariq tumanlarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Kelajakda to`qimachilik komplekslari negizida uzviy bog`langan sohalar va yordamchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish xom-ashyo xarid qilish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini ishlab chiqarishning texnologik zanjiri asosida birlashtirish, ishlab chiqariladigan tovarlar turini kengaytirishga, imitasiya (andoza olish) va innovasiyalarni keng joriy etishga imkoniyat yaratadi (**2.2.4-chizma**).

**2.2.4. – chizma.**

**To`qimachilik kompleksini qo`shilgan qiymat yaratilishining zanjirsimon bog`liqligi asosida tashkil qilish**.




Tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan kichik korxonalar, yirik biznesning ayrim sexlari va uy xo`jaliklari ishtirokida uzviy bog`langan sohalar yoki yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilish ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik uzviyligidan kelib chiqadi (**2.2.5-chizma**).

Viloyatda mashinasozlik klasterini shakllantirish avtomobillar ishlab chiqarish jarayonida elektr texnika, metallarga ishlov berish, kimyo, elektron, yengil sanoat, butlovchi hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqaradigan boshqa tarmoqlar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. Avtomobilsozlik sanoatining iqtisodiyotdagi multiplikativ samaradorligini hisobga olgan holda, uzviy bog`langan sohalarda yuqori texnologiyalarni joriy etish qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va shu o`rinda yuqori daromadli ish joylari yaratish imkonini beradi (**2.2.6-chizma**).

**2.2.5. – chizma.**

**To`qimachilik komplekslarini yaratishda aralash tarmoqlar va yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilish sxemasi.**

**TO`QIMACHILIK MAJMUALARI**

| |
|---|
| ***Muhim loyihalar-paxtadan ip-kalava va mato, to`qimachilik, trikotaj buyumlari*** |

| |
|---|
| ***“Bog`ottekistil” QK, “Kotton teks” MCHJ, “Kobo teks” MCHJ, “Darital teks” MCHJ va paxta tozalash zavodlari*** |

**Uzviy bog`langan tarmoqlar va yordamchi ishlab chiqarishlar**

| |
|---|
| Paxtadan ip-kalava (Xiva, Xazarasp tumanlari);<br>Trikotaj buyumlari (Qo`shko`pir, Xonqa, Yangiariq tumanlari);<br>Paypoq buyumlari (Urganch shahri, Xiva, Xazorasp, Urganch, Yangiariq tumanlari);<br>Tikuvchilik va to`qimachilik buyumlari (Urganch shahri, Xiva, Gurlan, Xazorasp, Urganch, Yangibozor tumalari);<br>Maxsus kiyim va avtomibil uchun yopchiqlar (Urganch, Xonqa tumanlari);<br>Jun buyumlar, gilamlar va gilam mahsulotlari (Xiva, Qo`shko`pir, Yangiariq tumanlari);<br>Poyafzal (Gurlan, Qo`shko`pir, Xazorasp, Yangiariq tumanlari);<br>Attorlik-charm buyumlari (Urganch shahri, Bog`ot, Gurlan, Xonqa, Urganch, Yangiariq, Yangibozor tumanlari);<br>Doka, tibbiyot bintlari, momiq paxta (Urganch shahri); |

Bundan tashqari, Urganch shahrida qulay tadbirkorlik muhiti va ishlab chiqarish bazasining mavjudligi hududda mintaqa iqtisodiyoti uchun noanĉanaviy bo`lgan elektr texnika, maishiy elektr uskunalari, televizor, muzlatish kameralari va muzlatgichlar (Xiva tumani bilan hamkorlikda), past va yuqori voltli apparaturalar, transformatorlar (Qo`shko`pir tumani bilan birgalikda) va boshqa tovarlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

**2.2.6. – chizma.**

**Mashinasozlik klasteri bazasida uzviy bog`langan sohalar va yordamchi ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish sxemasi**

**MASHINASOZLIK KLASTERI**




Umuman olganda, uzviy bog`langan sohalarni rivojlantirish va yordamchi ishlab chiqarish loyihalarini tashkil etish quyidagi qator vazifalarni hal etishni talab qiladi:

❖ xom-ashyoni qayta ishlashdan tortib, tashqi bozor talablariga javob beradigan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo`lgan jarayonni o`z ichiga olgan qo`shilgan qiymat zanjiri bo`yicha tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlarini o`rganish, yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish;

❖ mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mahsulot brendini yaratishni rag`batlantirish, bunday mahsulotlarni nafaqat mintaqada, balki uning tashqarisida ham sotish, yarmarka, ko`rgazma va boshqa tadbirlarni o`tkazishda faol ishtirok etish;

❖ tovarlar ishlab chiqarishda texnologiyalarning yangi avlodidan foydalanish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha mahalliy loyihalarni tayyorlash, ularni amaliyotda keng qo`llash;

❖ korxonalar ehtiyoj sezayotgan tegishli mutaxassislar va yuqori malakali kadrlarni (texnolog, marketolog, menejer va h.k.) tayyorlash, zarur hollarda ularni korxonalarning o`zida tayyorlash va qayta tayyorlash;

❖ temir yo`l va avtomobil yo`llaridan samarali foydalanish imkonini beradigan qulay ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, tashishlar hajmini oshirish, qurilish materiallarini yetkazib berish, qayta yuklash va saqlash ishlarini optimallashtirish maqsadida logistika markazlari va maxsus terminallar tashkil etish masalasini ko`rib chiqish;

❖ mahalliy tashabbuslarga asoslangan investisiya loyihalarini hamda bo`lajak investorlar uchun maʻlumotlar bankini yaratish, loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslashda uzoq muddatli istiqbolga mo`ljallangan prognoz ko`rsatkichlari va strategik tasavvurlardan keng foydalanish, bu borada mintaqani hududiy va kompleks ravishda rivojlantirish omillarini hisobga olish;

❖ mahalliy va hududlararo isteʻmol bozorini taʻminlashda mavjud xom-ashyodan oqilona foydalanish asosida mahalliy qayta ishlash sanoatining salohiyatini (yirik korxonalar, kichik biznes va kasanachilik vakillarini jalb etgan holda) oshirish;

❖ yuqori malakali mutaxassislarii ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoniga jalb etish uchun ularning maʻlumotlar bankini yaratish, yuqori malakali mahalliy mutaxassislarning hududiy sanoat korxonalarida bandligini taʻminlashning bilvosita iqtisodiy vositalaridan foydalanish;

❖ qishloq joylarida faoliyat ko`rsatmayotgan va bo`sh turgan binolardan samarali foydalangan holda kichik tadbirkorlik subʻektlari va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo`llab- quvvatlash maqsadida markazlashtirilgan suv, gaz va energiya taʻminoti tizimini yaratish orqali kichik sanoat zonalari va texnik-joriy qilish parklarini tashkil etish, ularning faoliyatini rag`batlantirish;

❖ hududlarda kichik sanoat zonalarining infratuzilmasini shakllantirishda markazlashtirilgan suv, gaz va energiya taʻminoti tizimini (YAngibozor, Gurlan, SHovot, Xiva va Bog`ot tumanlarida) bosqichma-bosqich yo`lga qo`yish (**2.2.7-chizma**). SHovot va Bog`ot tumanlaridagi kichik sanoat zonalari hududida, ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda, uzoq muddatli istiqbolda tajriba laboratoriyalari hamda yangi texnologiyalarni o`zlashtirish hamda joriy etishga ko`maklashadigan texnik-joriy qilish parklarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

**2.2.7. – chizma.**

## Hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish sxemasi




Kelajakda bunday zonalar atrofida xizmat ko`rsatish va kadrlar tayyorlash obôektlarini tashkil etish mumkin bo`ladi. Kichik korxonalar, qo`shimcha va xizmat ko`rsatish obôektlarining baqamti joylashtirilishi esa kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va aholi bandligini taôminlash uchun iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu kichik sanoat zonalari va texnik-joriy etish parklarida zamonaviy texnologiya va g`oyalar tez tarqaladi, infratuzilma xizmatlaridan jamoa bo`lib foydalanish esa tovar va xizmatlar tannarxining pasayishiga olib keladi.

Joylarda sanoatni samarali rivojlantirish borasida mablag` va resurslar cheklangan bir vaziyatda sanoatning rivojlanish darajasi past bo`lgan tumanlarda **mintaqalararo va hududlararo loyihalarni amalga oshirish** ularning mintaqaviy raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mintaqalararo loyihalarni hayotga tadbiq etish hududlarni resurs va infratuzilma bilan taοminlashda alohida ustuvorliklarga ega boshqa mintaqalar (Qoraqalpog`iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va boshqa viloyatlar) va hududlar bilan hamkorlikda ish olib borish imkonini yaratadi.

Bunday imkoniyat mintaqa va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar bilan ishtirok etishda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahalliy tabiiy resurslar, xom-ashyo va materiallardan samarali foydalanish, imitasiya va innovasiya jarayonlarini tezlashtirish, viloyatning innovasion salohiyatini shakllantirishda yaxshi samara berishini SHarqiy Osiyo davlatlari tajribasi ko`rsatib turibdi.

Hududlararo hamkorlik Urganch shahri va Urganch tumanida mashinasozlik mahsulotlarini mahalliylashtirish, Xiva, Bog`ot, Gurlan, Qo`shko`pir, Hazorasp, Xonqa, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida esa kimyo mahsulotlari va qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yishga turtki beradi.

Xorazm viloyatida boy foydali qazilma konlari yo`qligini hisobga olgan holda, ichki bozorni qurilish materiallari bilan to`ldirish masalasini Qoraqalpog`iston Respublikasining tabiiy-resurs salohiyatidan keng foydalanish asosida mintaqalararo loyihalarni amalga oshirish hisobiga hal etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ohak (Qoratov koni) va sement xom-ashyosidan (Muruntov koni) foydalangan holda, viloyatda ohak, temir-beton buyumlar, asfalt beton ishlab chiqarishni Bog`ot, Gurlan, Qo`shko`pir, Yangiariq, Yangibozor, Xonqa va Hazorasp tumanlarida yo`lga qo`yish mumkin. Bu nafaqat mahalliy mahsulot turlarini kengaytirish, balki ularni eksport qilishni ko`paytirish imkonini ham beradi. Bundan tashqari, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi bilan yaqin hamkorlik ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlash asosida poli-propilen buyumlar, sintetik gilam, sintetik yuvish vositalari, bitum ishlab chiqarishni Gurlan, YAngibozor va Xonqa tumanlarida o`zlashtirishga yordam beradi.

SHu bilan birga, Xorazm viloyati sanoatini Navoiy viloyatidagi sanoat majmuasi bilan bog`lashda autsorsing xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud.

Ushbu yo`nalishda Navoiy viloyati sanoat korxonalarining texnika va uskunalarni joriy hamda kapital ta’mirlash ishlariga bo`lgan talabni qondirish mumkin bo`ladi. Bunda Urganch shahri va Urganch tumanidagi mavjud quvvatlardan foydalanish sanoat ishlab chiqarishi uchun zarur bo`lgan turli xil butlovchi qismlar va moslamalarni tayyorlashga imkoniyat yaratadi.

**Hududlararo loyihalar** asosan unchalik rivojlanmagan, resurs va infratuzilma bilan yetarli darajada ta’minlanmagan, sanoat ishlab chiqarishi past darajada bo`lgan tumanlarning salohiyatini oshirish va shu asosda ularning iqtisodiy o`sish darajasini orttirishga yo`naltirilgan tadbirlardan iborat bo`lib, sanoat salohiyati yuqori bo`lgan tumanlarning taqqoslama va raqobat ustunliklaridan (mahalliy xomashyo, kadrlar salohiyati, tovarlar brendi, texnologiya, ishlab chiqarish quvvatlari va h.k.) foydalanishdagi integrasion jarayonlarni o`z ichiga oladi.

Xorazm viloyati tumanlari, O`zbekistonning boshqa hududlaridan farqli o`laroq, tabiiy xomashyo bazasiga ega emas. SHu tufayli viloyatda sanoatning chuqur qayta ishlash tarmoqlari deyarli rivojlanmagan. Bundan tashqari, mahalliy tadbirkorlar faoliyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining pastligi mintaqa raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko`rsatmoqda. Mazkur masalalarni hal etish uchun mavjud ustunliklardan foydalanishda hududlar sa’y-harakatlarini birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish, mehnat va boshqa salohiyatlarga ega, hunarmandlik yaxshi taraqqiy etgan tumanlar imkoniyatlarini jalb etish evaziga Xiva, Gurlan, Qo`shko`pir, Urganch, YAngiariq va YAngibozor tumanlari sanoatining rivojlanishidagi ortda qolishlar, mavjud nomutanosibliklar hamda ishlab chiqarish borasidagi tafovutlarni bartaraf etish mumkin bo`ladi.

Hududlararo loyihalarni amalga oshirishda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish ham muhim yo`nalish hisoblanadi. Qishloq xo`jalik xom-ashyosini chuqur qayta ishlashni kengaytirish bo`yicha meva-sabzavot (Urganch va SHovot tumanlari), go`sht va sutni qayta ishlash kabi (Urganch, Qo`shko`pir va Bog`ot tumanlari) qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish oziq-ovqat sanoati tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni ta’minlaydi. Misol uchun, boy xom-ashyo bazasiga ega bo`lgan qo`shni tumanlar ishtirokida meva va sabzavotlarni chuqur qayta ishlash ne-

gizida Urganch shahri, Urganch va SHovot tumanlarida hududlararo agrosanoat majmualarini tashkil etish imkoni mavjud.

Quyidagilar mintaqalararo va hududlararo loyihalarni amalga oshirishning muhim va zaruriy tadbirlari hisoblanadi:

- Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, ishlab chiqarish jarayoniga qayta ishlanayotgan xom-ashyodan tayyor mahsulot olishni ko`paytirish imkonini beradigan ikkilamchi resurslarni jalb etish maqsadida viloyatda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari xom-ashyo bazasini kengaytirish;
- Aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladigan parhez va davolash-profilaktika xususiyatlariga ega mineral va nutrientlar bilan boyitilgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyalarni, xususan bio va nanotexnologiyalarni tadbiq etish;
- Ilmiy-texnik taraqqiyotning resurs tejaydigan texnologiyalariga o`tish, chiqindisiz va atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan ishlab chiqarishlarni yo`lga qo`yish imkonini beradigan zamonaviy yutuqlarni joriy etish, sanoat ishlab chiqarishida suvni imkon qadar tejaydigan suv taôminotining mutlaqo yangi tizimini yaratish;
- Qulay ishlab chiqarish sharoitini yaratish borasida uzluksiz energiya taôminotini yo`lga qo`yish;
- Tadbirkorlik yarmarkalarini tashkil etish, mamlakatimiz va xorijdagi (Xitoy, Hindiston va Isroil) ishlab chiqaruvchilar, yuqori malakali kadrlar bilan tajriba almashish orqali mahalliy aholi va tadbirkorlarning bilim saviyasi hamda sohaga oid yangiliklardan xabardorlik darajasini oshirish.

Kichik sanoat korxonalarini tashkil etish uchun vaqtincha bo`sh turgan, hali ishga tushirilmagan obôektlardan samarali foydalanish, ularni «nol» qiymati bo`yicha xususiylashtirish imkoniyatlarini ko`rib chiqish va h.k

Ushbu Strategiyada taklif etilgan loyihalar va takliflarni inobatga olgan holda, viloyat sanoat ishlab chiqarishini modernizasion ssenariy asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu ssenariyga ko`ra sohani jadal rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini taôminlashga qaratilgan bir qancha tadbirlar, xususan yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushini oshirish, mavjud imkoniyat va zaxiralardan, ichki

hamda tashqi bozorda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo`lgan talabning qulay konǒyunkturasidan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish hamda investisiyalarni ustuvor ravishda asosiy kapitalni ko`paytirishga yo`naltirish ko`zda tutiladi. Natijada viloyatda 2030 yilga qadar sanoatning o`rtacha yillik o`sish darajasi 14,5 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,5 barobarga oshadi, yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi esa 21 foizni tashkil qiladi (**2.2.5-jadval**).

Taklif etilayotgan modernizasion ssenariyni qiyoslash maqsadida Strategiyada sanoatni rivojlantirishning inersion ssenariysi bo`yicha ham prognoz ko`rsatkichlari hisoblangan bo`lib, bu variantda viloyat sanoat ishlab chiqarishida 2030 yilgacha 4,3 barobar va yiliga o`rtacha 9,8 foiz o`sishga erishish mumkin. Natijada 2030 yilga kelib sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 12,7 foizni tashkil etadi.

**2.2.5.- jadval.**

**Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2030 yilgacha prognoz ko`rsatkichlari**

| Ko`rsatkichlar | Amalda | Davr oralig`idagi o`rtacha prognoz ko`rsatkichlari | | | Ishlab chiqarishning o`sishi, marta | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2013 y. | 2014-2020 y. | 2021-2025 y. | 2026-2030 y. | 2014-2020 y. | 2014-2025 y. | 2014-2030 y. |
| **Modernizatsion stsenariy** | | | | | | | |
| Ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari, oldingi yilga nisbatan % | 118,8 | 113,9 | 114,3 | 114,5 | 2,1 | 4,3 | 8,5 |
| Yalpi hududiy maxsulotda sanoatning ulushi*, % | 9,5 | 15,0 | 19,0 | 21,0 | x | x | x |
| **Inertsion stsenariy** | | | | | | | |
| Ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari, oldingi yilga nisbatan % | 11,8 | 112,0 | 109,0 | 107,5 | 1,9 | 3,0 | 4,3 |
| Yalpi hududiy maxsulotda sanoatning ulushi*, % | 9,5 | 10,0 | 11,5 | 12,7 | x | x | x |

* Ko`rsatkich davr oxiriga nisbatan ko`rsatilgan

## 2.3. O`zbekiston Respublikasida texnologik innovatsion klasterlar va tizimlarni shakllantirish istiqbollari

O`zbekistan iqtisodiyotining o`ziga xos tomonlarini, xususan, uning katta bo`lmagan hududini, xo`jaligining tarmoq tarkibini eőtiborga olgan holda, tarmoqlararo innovatsion klasterlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo`lar edi. Hududiy klasterlarni iqtisodiy rayonlar doirasida ajratib olish mumkin, masalan, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarini birlashtirgan Markaziy iqtisodiy rayon doirasida. Bu holatda hududiy klaster yaratishga mamlakatning mazkur hududiy birliklari ega bo`lgan qiyosiy ustunliklarining o`xshashligi asos bo`lib xizmat qilishi lozim.

Shuni taőkidlash kerakki, klasterlarning mazkur tipi innovatsiya-investitsiya faoliyatini rivojlantirishning maqsadli yo`nalishiga ega bo`ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ITSKni rivojlantirishdan asosiy maqsad makroinnovatsiya loyihalarini, xususan, asosiy kapital va innovatsiya fondlari uchun, makrotexnologiyalar va ishlab chiqarish vositalarini yaratish bo`yicha energiya va resurs tejovchi loyihalar, shuningdek, ham ichki bozor uchun, ham jahon bozori uchun mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, intellektual inson kapitalini to`plashga ixtisoslashuv hisoblanadi. Bunda so`z birinchi navbatda, ustuvor klasterlar ustida bormoqda, yaőni «gazni qayta ishlash, neft-kimyo, kimyo sanoati, energetika, avtomobilsozlik, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, farmatsevtika kabi zamonaviy sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini va albatta, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizmilarini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berish, yaqin kelajakda raqamli va keng formatli televideniega o`tish haqida bormoqda.

Shular qatorida, birinchi navbatda, yengil, to`qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo`jaligi mahsulotlari va xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo`lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida eőtibor qaratish darkor»[16].

[16] Karimtsv I.A. Astssiy vazifamiz ï vatanimiz taraqqiyoti va Ҳalqimiz fartsvtsnligini yanada yuksaltirishdir. ï T.:

Taôkidlash kerakki, aynan ilg`or innovatsion yo`nalishlarni birinchi navbatda investitsiyalash asosida «ilmiy tadqiqotlar ð amaliy ishlanmalar ð loyihani moliyaviy taôminlash va iqtisodiy rag`batlantirish ð yangi texnika, yuqori texnologiyalar va fan sig`imi yuqori mahsulot ishlab chiqarish ð marketing va mahsulotni bozorga olib chiqish ð savdoni tashkil etish» kabi izchil harakatlar zanjiridan iborat innovatsiya-investitsiya loyihalarini jadal rivojlantirish mumkin ekan. Taôkidlash kerak, loyihaning har bir bosqichida yangi g`oyalar va ixtirolarni jamlash, to`plash ko`zda tutiladi ð bu birinchidan, ikkinchidan esa, bu yerda g`oyalarni innovatsiyalarning yangi hayot tsikllarida tijoratlashtirish masalasi ko`ndalang turadi, ularni yana kelgusida joriy etish maqsadlarida venchur firmalariga sotish ehtimoli ham mavjud.

IHKni shakllantirish masalasini ko`rib chiqadigan bo`lsak, ularning bosh maqsadi muayyan hududlarda innovatsion faoliyatni kompleks ijtimoiy-yo`naltirilgan rivojlantirishni taôminlab berishdan iborat. Bunga yuqori texnologiyalarni va ham ichki, ham tashqi bozor uchun fan sig`imi yuqori bo`lgan raqobatbardosh mahsulotlarni, tovar va xizmatlarni keng miqyoslarda yaratish maqsadida bilimlarni, innovatsiyalarni, investitsiya-moliyaviy mablag`larni birlashtirish asosida mezo- va mikrodarajalardagi innovatsiya loyihalarini jamlash va tijoratlashtirish asosida erishish mumkin. Bu esa o`z navbatida, hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inson salohiyatini oshirish, shuningdek, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, yaôni tabiiy boyliklardan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishni taôminlab beradi.

Tashkiliy jihatdan IHK ustuvor klasterlar, yaôni texnoparklar, erkin iqtisodiy zonalar va boshqalar asosida shakllanadi. IHKning mintaqaviy ahamiyati hududiy innovatsiya tizimlarining O`zbekiston innovatsion iqtisodiyotining istiqbolli tuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, jahon bozorida raqobatbardosh ishlab chiqarish vositalari savdosini kengaytirish yo`li bilan eksportni diversifikatsiya qilish maqsadlarida integratsiyalashuv va diversifikatsiyalashuvning uzoq muddatli dasturlariga muvofiq ravishda innovatsion loyihalarni investitsiyalashdan iborat.

---

O`zbj kisttsn, 2010. 59 b.

Respublika iqtisodiyoti klaster tuzilmasining shakllanishi va hayotiy zarur innovatsion yo`nalishlarni investitsiyalash jarayonlarini uzoq muddatli istiqbolda ko`rib chiqish talab etiladi. Bu holatda MITning tuzilmaviy yadrosi bo`lgan innovatsion yo`nalishlarni strategik investitsiyalashning kontseptual yo`nalishlarini aniqlash lozim. Bizning fikrimizcha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagilar maqsadga muvofiq:

- 2015 yilgacha bo`lgan davrda (shartli birinchi bosqich) innovatsion-investitsiyalash faoliyati ustuvor yo`nalishlarini rivojlantirish, xususan:

✓ insonning intellektual salohiyatini to`plash, eng avvalo, fundamental fanlar ilmiy kadrlarini yoshartirish, oliy taðlim sifatini oshirish, ITTKI va innovatsion yo`nalishdagi sanoat kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

✓ MIT va uning sektoral-klaster kichik tizimlarini yaratish, xususan, ITSK va IHK asosida uning ilmiy-innovatsion va investitsiya-moliyaviy yadrosini shakllantirish. Bunda klaster tuzilmasi tarkibiga tarmoqlar va mintaqada faoliyat ko`rsatayotgan barcha shakldagi (davlat, aktsiyadorlik va h.k.) korxonalar, ilmiy tashkilotlar va oliy o`quv muassasalari kiritilishi lozim. Eng muhimi ð bu MITning makro-, mezo- va mikrodarajalaridagi hayotiy innovatsion bos- qichlarini birinchi navbatda investitsiyalashni taðminlab berish;

- davlat innovatsiya-investitsiya siyosatining qonuniy asoslarini yaratish, ular yuqori texnologiyalarni tijoratlash- tirish va ustuvor innovatsion yo`nalishlarni dasturiy-maqsadli qo`llab-quvvatlash, iqtisodiy rag`batlantirish va davlat-xususiy investitsiyalash mexanizmlari bilan mutanosib bo`lgan qonunlarda o`z ifodasini topishi lozim.

2020 yilgacha bo`lgan davr (ikkinchi bosqich)da ITSK va IHKni investitsiyalash orqali MITning yuzaga kelgan klaster tuzilmasi asosida iqtisodiyot tuzilmasini diversifikatsiya qilish. Bu asosiy kapitalni texnologik modernizatsiya qilish, raqobatbardosh isteðmol tovarlarini yaratish va ijtimoiy sohada innovatsion xizmatlarni kengaytirish uchun asos taðminlab beruvchi biotexnologiyalarni, axborot-kommunikatsiya tizimlarining asosiy texnologiyalari, fan sig`imi yuqori bo`lgan ishlov beruvchi sanoatni rivojlantirish kabi makrodarajalarda innovatsion tex-

nologiyalarni yaratish bo`yicha innovatsion loyihalarni keng miqyoslarda jamlashga yordam berishi kerak.

2025 yildan boshlab va istiqbolda (uchinchi bosqich) respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohada tuzilmaviy-innovatsion modernizatsiya qilishni mo`ljallash. Bu innovatsiyalarni ustuvor rivojlantirish va makrodarajadagi tugal kompleks innovatsion tsiklning shakllanishi, intellektual kapitalning keng miqyoslarda to`planishi, energiya va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish negizida yuz berishi lozim. MITning yuzaga kelgan klasterlarida nanotexnologiyalarning, optikelektronika va axborot texnologiyalar, biotexnologiyalar va gen muhandisligi texnologiyalari, energetika texnologiyalarining keng miqyoslarda takror ishlab chiqarilishini amalga oshirish, shuningdek, bir qator innovatsion texnologiyalarni qo`llash, birinchi navbatda, energetika va ekologik himoyaga ega turarjoylarni to`liq ravishda kompyuterlashtirishga o`tishni amalga oshirish lozim.

Shunday qilib, 2025 yilgacha va undan ham keyin respublika YaIMning o`sishi to`liq ravishda mehnat unumdorligini oshirish hisobiga taôminlashini lozim ekan, innovatsiyalarning intensiv omillari ulushi esa YaIMning o`sish surôatlarida 60ð 70% chegarasida bo`lishi kerak. Asosiy kapitalni innovatsion takror ishlab chiqarishga investitsiyalar ulushini YaIMning 30ð 32% miqdorida ushlab turish lozim, ishlov beruvchi sanoat esa ham ichki, ham jahon bozorlarida sotilishi mumkin bo`lgan yuqori texnologik mashinalar va jihozlarni, raqobatbardosh, fan sig`imi yuqori bo`lgan mah- sulotlarni yalpi ishlab chiqarishning 50%dan kam bo`lmagan qismini taôminlay oladi.

Agar respublikaning hozirgi iqtisodiy ahvolini tahlil qiladigan bo`lsak, O`zbekistonda milliy innovatsiya tizimini shakllantirish va muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun makroiqtisodiy sharoitlar qaror topib bo`lganini ko`ramiz. O`tgan yilga taqqoslaydigan bo`lsak, 2010 yilda mamlakatimizning YaIM 8,5%gao`sgani, sanoat sohasi 8,3%ga, iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 13,6%ga oshganini

ko`ramiz[17]. 2010 yilda asosiy kapitalga jalb etilgan investitsiyalar mamlakat YaIMning 25%ni tashkil etdi.

Biroq respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsiya-investitsiya strategiyasini amalga oshirish maqsadida davlat innovatsiya-investitsiya siyosatini o`tkazish maqsadga muvofiq[18] va u davlatning amalga oshiriladigan uzoq muddatli iqtisodiy siyosatining o`zagi bo`lib xizmat qilishi lozim.

Klaster tuzilmalarini va parallel ravishda innovatsiyalar va texnologiyalar bozori vositalarini rivojlantirish bo`yicha innovatsion-investitsion mexanizmlarni mukammallashtirish yo`nalishlari sifatida, bizning fikrimizcha quyidagilarni ajratish mumkin:

- strategik bashoratlarni tuzish doirasida Fan-texnika taraqqiyoti kompleks dasturining yaqin 25ð 30 yillar uchun ilmiy - bashorat asoslarini yaratish;
- istiqbol uchun (taxminan 20 yilga) ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning kompleks innovatsion dasturini ishlab chiqish, dastur fan, innovatsiyalar, mehnat resurslarini rivojlantirishni, resurslarni, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning optimal nisbatlarini taôminlashga qaratiladi;
- davlat boshqaruv mexanizmi doirasida, klaster innovatsiya tizimi bilan o`zaro bog`liq bo`lgan respublika MITni qaror toptirish. Boshqaruv mexanizmining samaradorligi innovatsiya loyihalarini rivojlantirish va innovatsiya faoliyati iatijalarini tijoratlashtirish, asosiy kapitalni modernizatsiya qilishni taôminlash, intellektual salohiyatni to`plash, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarida namoyon bo`ladi;

fundamental va amaliy tadqiqotlarni YaIMning 4ð 5%dan kam bo`lmagan miqdorda moliyalashtirish va rag`batlantirish ishlarini bajarish. Shuningdek, davlat tomonidan soliq va amortizatsiya siyosati yordamida, fan, maorif va ITTKI sohasida faoliyat

---

[17] Karimtsv I.A. Barcha rȷja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Ꞧalqimiz fartsvtsnligini tsshirishga Ꞧizmat qiladi. O`zbȷkisttsn Rȷspublikasi Prȷzidȷnti I.Karimtsvning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimtsiy iqtistsdiy rivtsjlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvtsr yo`nalishlariga baᗝishlangan O`zR VMning majlisidagi nutqi/ ʍalq so`zi, 2011 y.,22 yanvar, ¯ 16

[18] Davlatning ijtimtsiy-iqtistsdiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi sifatidagi inntsvatsiya-invȷstitsiya siyosati dȷganda, biz Ꞧo`jalik subôȷktlari o`rtasidagi btsztsr muntssabatlarining ktstspȷratsiyalashuvi va divȷrsifikatsiyalashuvi kuchaygan shartsitlarda davlatning invȷstitsitsn-mtsliyaviy va tuzilmaviy-inntsvatsitsn tadbirlari majmuini tushunamiz, u esa ilg`tsr bilimlar va yuqtsri tȷꞦntsltsgiyalar astssida iqtistsdiyotni rivtsjlantirishning stratȷgik maqsadlarini amalga tsshirishni taôminlab bȷradi// [illegible] / L.Abalkinning umumiy tahr. tsstida. ï M.: Ekzamȷn, 2004. 289-290 b.lar.

ko`rsatuvchilar ish haqini rivojlangan mamlakatlar darajasigacha ko`tarish orqali ITTKI o`tkazishni iqtisodiy jihatdan rag`batlantirish;

- innovatsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirishda davlat-xususiy biznes hamkorligi asosida texnopolislar, sanoat zonalari, EIZ va boshqalarni shakllantirish. Innovatsiyalar tanlovlarni o`tkazish va davlat investitsiyalariga kvota berish asosida, xususiy venchur biznesni ularni amalga oshirishga jalb etish orqali noyob yuqori texnologiyalar va texnik tizimlar yaratishga davlat tomonidan buyurtmalar berish yo`li bilan tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishni rag`batlantirish;
- venchur tadbirkorligi va kichik innovatsion korxonalarni keng miqyoslarda rivojlantirish. Mazkur yo`nalishda venchur tadbirkorlikka konsalting va yuridik xizmat ko`rsatish bo`yicha notijorat venchur assotsiatsiyalarini, davlat-xususiy venchur fondlarini tashkil etish maqsadga muvofiq;
- davlat tomonidan intellektual salohiyatni jamlash va kadrlar tayyorlashni rag`batlantirish. Bunda jismoniy va yuridik shaxslarning taôlim uchun xarajatlari, shuningdek, ilm-fan hamda ilmiy xodimlar uchun mo`ljallangan uy-joy, ijtimoiy va madaniy qurilish obôektlariga jalb etiladigan investitsiyalarni, shu jumladan, paychilik asosidagi investitsiyalar va bu maqsadlar uchun pay investitsiya fondlari tuzish yo`li bilan ularni soliqlardan ozod qilish (yoki kamaytirish) mumkin;
- ilmiy g`oya va ixtirolarni davlat tomonidan himoya qilish va ilm-fanning milliy xavfsizligini taôminlash nuqtai nazaridan patent idoralari ishlarini takomillashtirish, shuningdek, intellektual kapitalni mamlakatdan chiqib ketishini cheklash mexanizmini ishlab chiqish;
- ilmiy g`oyalar, yutuqlar, innovatsiyalar va texnologiyalar bozorini rivojlantirishni rag`batlantirish, yaôni innovatsiyalar va texnologiyalar milliy bozorini shakllantirish.

Shunday qilib, innovatsion rivojlanishni investitsiyalash mexanizmini mukammallashtirish yo`nalishlari innovatsiya lar va texnologiyalar bozori vositalarini hamda klaster tuzilmalarini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi, bu asa respublika MITni shakllantirish va samarali faoliyat ko`rsatishi uchun juda muhim.

MITni rivojlantirish doirasida innovatsiyalar va texnologiyalarni tijoratlashtirish dolzarb masala bo`lib qolmoqda, MITni shakllantirishga kirishgan xorijiy mam-

lakatlar tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, 100 ta innovatsion g`oyadan faqat 30% tijorat muvaffaqiyatiga erishgan. Innovatsiyalar va texnologiyalar bozorini (ITB) rivojlantirish ushbu muammoning yechimi bo`lishi mumkin. Bunga esa, shakllantirish uchun investitsiya resurslariga bozor talabi zaruriy shart bo`lgan moliyaviy investitsiyalash vositalari bilan innovatsiyalarni investitsiyalashning real obôektlariga quyilmalar mexanizmlari o`rtasidagi o`zaro aloqalar asosida erishilishi lozim. Moliyaviy investitsiyalash ishlarini real innovatsion va ITTKI obôektlarini, innovatsion loyiha va dasturlarni, raqobatbardosh innovatsion tovarlar va texnologiyalarni sotib olish-sotish orqali amalga oshirish mumkin.

Shuni taôkidlash kerakki, ITBni shakllantirish va uning faoliyatini yo`lga qo`yishda eng muhim tamoyilga rioya etish lozim, yaôni, ilmiy g`oyalar, kashfiyotlar, ixtirolar, patentlar egalarini va nou-xau mualliflari, barcha ilmiy tadqiqotchilar va innovatorlarni har qanday bozor, yaôni birja, konkurs, auktsion va h.k.da ishtirok etishiga imkon yaratish kerak. Hattoki maxsus birja litsenziyasiga ega bo`lmagan innovatorlar uchun ham rasmiy bozorlarda barcha operatsiyalar (bular Internet savdosi bo`lishi mumkin), ilmiy g`oya va nazariyalarga mualliflik huquqlari va innovatsiyalarga egalik huquqini qayd etish qoidalariga amal qilgan holda o`tkazilishi lozim.

Pirovardida, ITBning yuzaga kelishi respublika milliy iqtisodiyotini industrial-innovatsion rivojlantirish uchun katalizator, innovatsion g`oyalarni amalga oshirish, shuningdek, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun katalizator vazifasini bajarishi mumkin. Bozorning mazkur turi jahon iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari nuqtai nazaridan mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida hamda iqtisodiyotni va jamiyatni rivojlantirishda uyg`un ravishda ishtirok etishiga ham yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, respublikani innovatsion rivojlantirishning ushbu yo`nalishlarini amalga oshirish uchun bu sohada davlat siyosatini yuritish maqsadlarida maxsus davlat tuzilmasini yaratish talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, biz O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining makroiqtisodiy kompleksi tarkibida innovatsion-texnik rivojlanish bo`yicha tashkiliy tuzilma (bo`lim yoki departament) tashkil etish zarur bo`lib, u O`zbekiston iqtisodiyotini industrial-

innovatsion rivojlantirish vazifalarini hal etish va fan-texnika taraqqiyoti yo`nalishlarini belgilash masalalari bilan shug`ullanadi.

Texnologik (innovatsion) klasterlarni yaratish uchun kritik texnologiyalar ro`yxatini belgilab olish zarur. Bizning fikrimizcha, bu holatda, respublika milliy iqtisodiyoti tarmoq imkoniyatlari va mahalliy resurslarni hisobga oligan holda eng zarur innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish talab etiladi. Bu yerda, u respublikada amalga oshirilayotgan mahalliylashtirish dasturiga o`xshash bo`lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tavsiya etiladigan, mahalliy sharoitlar va mahalliy resurslardan foydalanib ishlab chiqarish mumkin bo`ladigan mahsulotlar ro`yxati belgilab berilishi kerakligini aytib o`tish joiz.

Ushbu maqsadda yaqin istiqbolda O`zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni aniqlash bo`yicha tadqiqotlar o`tkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Davlatning innovatsion-investitsion siyosatiga muvofiq ishlab chiqiladigan Fan-texnikani rivojlantirish kompleks dasturini tayyorlash va uni qabul qilinishi ushbu masalaning yechimi bo`lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holatda, komplekslilik tamoyiliga amal qilish juda muhim, sababi innovatsion-investitsion siyosat strategiyasi fan-texnika taraqqiyot dasturining asosi bo`lib hisob-lanadi va, shunday ekan, ular uyg`un ravishda bir-birini o`zaro to`ldirishi va birgalikda harakat qilishi kerak.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari (Germaniya, Yaponiya, Rossiya, AQSh va b.) tajribasini o`rganish kelajakda O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshlik holatiga sezilarli taôsir ko`rsatishi mumkin bo`lgan quyidagi texnologik (innovatsion) klasterlar ro`yxatini belgilab olishga imkon beradi:

o nanotexnologiya (nanoelektronika, nanomateriallar, nanotexnika).

Agar o`zbek olimlarining nanotexnologiyalar sohasidagi ishlanmalari (tadqiqotlari)ning ilmiy darajasini baholaydigan bo`lsak, baôzi sohalarda ular jahon darajalariga to`g`ri keladi, xususan:

o hujayralar biotexnologiyasi (biotibbiyot, gen muhandisligi, hujayralar biopolimerlari);

o axborot texnologiyalari (axborot-telekommunikatsiya tizimlari, dasturiy taôminot, matematik modellashtirish tizimi va h.k.);

o yangi materiallar (kompozitlar, polimerlar, keramika materiallari, maxsus xossalarga ega materiallar va qotishmalar, o`ta qattiq materiallar, biomuvofiq materiallar, katalizatorlar).

Masalan, genetik material ð dezoksiribonuklein kislota (DNK)ning o`zgarishi bilan bog`liq hujayralar biotexnologiyasi klasterini yaratish mumkin. Gen muhandisligi qimmatli xususiyatlarga ega genlarni bir organizmdan ikkin- chisiga o`tkazish yoki genlar funktsiyasini kuchaytirish yoki kuchsizlantirish (transformatsiya) orqali boshqa organizmda maqsadli o`zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Gen muhandisligidan foydalanish orqali istalgan tirik organizmda maqsadli o`zgarishlarni, masalan, sanoat miqyoslarida oqsillar ishlab chiqarish, o`simlik va hayvonlar turlarining inson ehtiyojlariga muvofiq ravishda mahsuldorligini oshirish, turli irsiy kasalliklarni davolash va boshqalarni amalga oshirish mumkin.

Paxta g`o`zapoyasining genetik muhandisligiga bag`ishlangan tadqiqotlar O`zbekistonda 1980-yillarning boshida akad. O.S.Sodiqov tashabbusi bilan boshlangan. Hozirgi vaqtga kelib, olimlarimiz «genlarni o`chirib qo`yish» («gen nokaut») metodidan foydalanish yo`li bilan genlar faolligini boshqarish texnologiyasini yaratganlar va paxta tolasining uzunligi uchun javobgar bo`lgan va gullashga to`sqinlik qiluvchi bir nechta genlar faoliyatini to`xtatib qo`ydilar, shuningdek, yuqori agronomik ko`rsatkichlarga ega transgen g`o`zapoya turlarini olishga muvaffaq bo`ldilar. Shunday qilib, nisbatan uzun va yuqori sifatli tolaga ega tezpishar transgen g`o`zapoya olish bo`yicha innovatsion g`oya amalga oshirildi.

Biotexnologiyalar natijalaridan iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlarida foydalanish mumkin:

sog`liqni saqlash va veterinariyada, yaъni aynan diagnostikumlarning yangi avlodlari, virusga qarshi va o`simtalarga qarshi dorivor vositalar olish, gen diagnostikasi va gen terapiyasini o`tkazish maqsadlarida;

sanoatda, xususan, biopolimerlardan biokatalizatorlar sifatida foydalanishda, oziqaviy qo`shimchalar olishda, neft mahsuldorligini oshirishda, gazni qayta ishlashda, rudalardan nodir metallar ajratib olishda foydalanish mumkin;

- qishloq xo`jaligida bioo`g`itlardan foydalanish;

atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, tuproqlarni bioremiditatsiya qilish va suvni tozalashda.

Oliy va o`rta taôlim anôanalarini eôtiborga olgan holda, asosini matematik modellashtirish tizimini yaratish texnologiyasi tashkil etgan dasturiy taôminot va modellashtirishning universal klasterini yaratish mumkin. Bunday klasterni yaratish uchun O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida ham, oliy taôlim tizimida ham malakali kadrlar mavjud (Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti fakultetlari va mamlakatning boshqa oliy o`quv yurtlarida).

Taôkidlash joizki, matematik modellashtirish texnologiyasini quyidagi sohalarda samarali qo`llash mumkin:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish stsenariylarini joriy va istiqbol uchun modellashtirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun rivojlanish bashoratlari va boshqalarni tuzish;

mikroelektronika va sanoatning boshqa tarmoqlarida materiallar olish uchun texnologiyalarni modellashtirish;

murakkab texnik tizimlarni loyihalashtirishni avtomatlashtirish nazariyasi va metodlarini modellashtirish;

- berilgan o`lchamlar bilan turli soha va tarmoqlarda, masalan, favqulodda vaziyatlarni modellashtirishda imitatsion tajribalar o`tkazishning instrumental vositalarini modellashtirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish oqibatlari va ekologik vaziyatlarni modellashtirish.

Shunday ekan, mamlakatning joriy raqobatbardoshlik vazifalarini hal etuvchi va tabiiy qiyosiy afzalliklarga tayanuvchi tarmoqlarning, shuningdek, istiqbolli raqobatbardoshlikni taôminlab beruvchi texnologik (innovatsion) klasterlar yaratuvchi tarmoqlarning optimal nisbatlarini taôminlash maqsadga muvofiqdir. Bunda so`z yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish ustida borib, ular nafaqat mazkur texnologiyalarga xizmat ko`rsatishni, balki yuqori texnologiyalar bazasida, jumladan, ustuvor tarmoqlar uchun ham yangi uskunalarni yaratishni ham o`z ichiga olishi kerak.

Texnologik klasterlarni yaratish uchun muhim shart-sharoitlar talab etilishini qayd etish kerak. Buning uchun O`zbekiston iqtisodiyotida yetarli zamin yaratilgan, jumladan, jahon bozoriga chiqqan yirik milliy korxonalar mavjud. Bunday korxonalar biznesni rivojlantirish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqotlar va texnik ishlanmalar uchun katta mablag`lar sarflashga, zamonaviy texnologiyalarga ega bo`lish maqsadlarida yirik xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilishga, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishga majbur bo`ladilar. Umuman olganda, ularning milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini taôminlab bera olishga qodir yirik milliy korporatsiyalarga aylanib borishida hozircha baôzi yutuqlarni ko`rishimiz mumkin.

Mazkur shart-sharoitlar. davlat tomonidan jiddiy yordam ko`rsatilgan taqdirdagina, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan real siljishni amalga oshirishga imkon berishi mumkinligini yana bir bor taôkidlash zarur.

O`zbekiston iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun rivojlanishi globallashuvi va jahon bozoriga kirib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish ð o`z oldiga mamlakat raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilib qo`ygan MITni shakllantirishning eng dolzarb vazifasi bo`lib qoladi.

Hozirgi vaziyatda ko`plab o`zbek korxonalarining raqobatbardoshligiga ular mahsulotining nisbatan past narxlari tufayli erishilmoqda. Bunday vaziyatlarda yirik milliy kompaniyalarni, masalan, moliya-sanoat guruhlarini (MSG) yaratishga eôtibor qaratish eng istiqbolli hisoblanadi. Raqobatbardosh biznesni rivojlantirish yirik korxonalar o`z atroflarida o`zining moliyaviy, ishlab chiqarish, savdo, innovatsion manfaatlari taôsir doirasiga jalb etuvchi ko`p sonli ishlab chiqarish, servis va boshqa korxona hamda tashkilotlarning tarmoq tuzilmalarini shakllantirishiga olib keladi. Albatta, aynan yirik korporatsiyalar biznesning franchayzing, autsorsing, tarmoqli marketing, texnoparklar, innovatsion inkubatorlar kabi shakllaridan keng foydalanadilar, ular tufayli iqtisodiy faoliyat subôektlari soni jadal o`sib boradi.

Raqobatbardosh tarmoqlarni tanlashga mos texnologik (innovatsion) klasterlarni shakllantirish, respublikani rivojlantirishning yangi iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishni talab etishini taôkidlash joiz. Bugungi kunda respublikada eksportida xom ashyo resurslarining va past qo`shilgan qiymatga ega

mahsulotlarning ustunligi xos bo`lgan resurs-eksport strategiyasi amalga oshirilmoqda. O`zbekistonni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning o`zga yo`li mavjud, yaôni u fan sig`imi yuqori bo`lgan mahsulotlar eksportini sezilarli ravishda oshirishni nazarda tutuvchi strategiyani amalga oshirishdan iborat. Biroq bizning fikrimizcha, bu yo`nalish istiqbolga ega emas, sababi u yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun katta mablag`ni, shuningdek, milliy iqtisodiyot tuzilmasini ko`proq darajada sanoatni, xususan, ishlov beruvchi sanoatni rivojlantirish tomon keskin o`zgartirilishini talab etadi. Bizningcha, eng maqbul va optimal yo`l ð bu har ikki strategiyani birga qo`shgan, yaôni O`zbekiston iqtisodiyotini resurs-iinovatsion rivojlantirishni o`zida jamlagan rivojlanish strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Raqobatbardosh tarmoqlarni tanlashga mos texnologik (innovatsion) klasterlarni shakllantirish, respublikani rivojlantirishning yangi iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishni talab etishini taôkidlash joiz. Bugungi kunda respublikada eksportida xom ashyo resurslarining va past qo`shilgan qiymatga ega mahsulotlarning ustunligi xos bo`lgan resurs-eksport strategiyasi amalga oshirilmoqda. O`zbekistonni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning o`zga yo`li mavjud, yaôni u fan sig`imi yuqori bo`lgan mahsulotlar eksportini sezilarli ravishda oshirishni nazarda tutuvchi strategiyani amalga oshirishdan iborat. Biroq bizning fikrimizcha, bu yo`nalish istiqbolga ega emas, sababi u yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun katta mablag`ni, shuningdek, milliy iqtisodiyot tuzilmasini ko`proq darajada sanoatni, xususan, ishlov beruvchi sanoatni rivojlantirish tomon keskin o`zgartirilishini talab etadi. Bizningcha, eng maqbul va optimal yo`l ð bu har ikki strategiyani birga qo`shgan, yaôni O`zbekiston iqtisodiyotini resurs-iinovatsion rivojlantirishni o`zida jamlagan rivojlanish strategiya- sidan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Shunday ekan, ushbu strategiyani amalga oshirish uchun mahalliy korxonalarga ulardagi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish uchun davlat tomonidan yordam ko`rsatilishi kerak, xususan, soliq taôtillari, investitsiya chegirmalari, soliq va to`lovlarning standart stavkalarini pasaytirish, respublikada ishlab chiqarilmaydigan

uskunalar uchun import bojlarini bekor qilish, texnologik (innovatsion) klasterlar uchun davlat buyurtmalarini shakllantirish lozim.

Shuningdek, rivojlanishning resurs-innovatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun davlatning xususiy biznes bilan munosabatlari shakli sifatidagi xususiy-davlat hamkorligidan, dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan qo`shma korxonalar yaratishni rag`batlantirishdan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ushbu strategiyasi respublika iqtisodiyotining tabiiy qiyosiy ustunliklari hisobiga hozirda raqobatbar-dosh bo`la olgan tarmoqlarini yanada rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarish va korxonalar ð  yuqori texnologiyalar va servis xizmatlari tarmoqlarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish uchun ham keng imkoniyatlar ochadi, bu esa o`z navbatida, istiqbolda O`zbekiston iqtisodiy rivojlanishining, shuningdek, nafaqat iqtisodiyotning, balki butun mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim negiz bo`lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz sanoati tizimida klasterlarni shakllantirish sanoat tarmog`ini rivojlantirish, sanoat korxonalari o`rtasida raqobat muhitini shakllantirish natijasida ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqot natijalarini ko꞉rsatishicha, O`zbekiston Respublikasi sanoat korxonalari innovatsion iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda innovatsion sanoat klasterlarni shakllantirish yo`llarini aniqlash va ulardan mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishda samarali foydalanish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Bu borada biz tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni keltirib o꞉tamiz:

1. Sanoat korxonalari klaster tuzilmalarini va parallel ravishda innovatsiyalar va texnologiyalar bozori vositalarini rivojlantirish bo`yicha innovatsion-investitsion mexanizmlarni mukammallashtirish;
2. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning kompleks innovatsion dasturini ishlab chiqish (*dastur bevosita fan, innovatsiyalar, mehnat resurslarini rivojlantirishni, resurslarni, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning optimal nisbatlarini ta'minlashga qaratilishi lozim*);
3. Davlat boshqaruv mexanizmi doirasida, klaster innovatsiya tizimi bilan o`zaro bog`liq bo`lgan respublika MIT (*Milliy innovatsion tizimi*) ni qaror toptirish;
4. Fundamental va amaliy tadqiqotlarni YaIMning 4- 5%dan kam bo`lmagan miqdorda moliyalashtirish va rag`batlantirish ishlarini bajarish;
5. Davlat tomonidan soliq va amortizatsiya siyosati yordamida, fan, maorif va ITTKI sohasida faoliyat ko`rsatuvchilar ish haqini rivojlangan mamlakatlar darajasigacha ko`tarish orqali ITTKI o`tkazishni iqtisodiy jihatdan rag`batlantirish;
6. Innovatsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirishda davlat-xususiy biznes hamkorligi asosida texnopolislar, sanoat zonalari, EIZ va boshqalarni shakllantirish;
7. Davlat tomonidan intellektual salohiyatni jamlash va kadrlar tayyorlashni rag`batlantirish (*bunda jismoniy va yuridik shaxslarning ta'lim uchun xarajatlari, shuningdek, ilm-fan hamda ilmiy xodimlar uchun mo`ljallangan uy-joy, ijtimoiy va*

*madaniy qurilish ob’ektlariga jalb etiladigan investitsiyalarni, shu jumladan, paychilik asosidagi investitsiyalar va bu maqsadlar uchun pay investitsiya fondlari tuzish yo`li bilan ularni soliqlardan ozod qilish (yoki kamaytirish) mumkin*);

8. Ilmiy g`oyalar, yutuqlar, innovatsiyalar va texnologiyalar bozorini rivojlantirishni rag`batlantirish, yaôni innovatsiyalar va texnologiyalar milliy bozorini shakllantirish.

Yuqorida bayon etib o`tilgan xulosa va takliflar sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini investitsiyalash mexanizmini mukammallashtirish yo`nalishlari innovatsiyalar va texnologiyalar bozori vositalarini hamda sanoat korxonalari klaster tuzilmalarini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi, bu esa respublikada mavjud bo`lgan sanoat korxonalarining klaster rivojlanish salohiyatidan samarali foydalanib iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojiga ham ijobiy taôsir ko`rsatgan holda texnik va texnologik yangilanish jarayoniga taôsir qilib, O`zbekiston iqtisodiyotining butun real sektorini innovasion rivoji uchun quvvatli sinergetik samara olish imkoniyatini beradi.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI


8. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2010 y.

9. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maôruzasi. Xalq so`zi 2016 y.

10. Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ ï 916 sonli qarori. // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008 y., ¯ 29-30, -280-b.;2010 y.¯ 1-2,-2-b., 2011 y., ¯ 36, - 366 ï b., 2012 y., ¯ 8-9-78-b.

11. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o`sish surôatlari bilan barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o`zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo`li bo`ladi. ï ñXalq so`ziò gazetasi. 2014 yil 18 yanvar, ¯ 13.

12. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zR Vmning majlisidagi nutqi/ Xalq so`zi, 2011 y.,22 yanvar, ¯ 16

13. Karimov I A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va halqning farovonligini yanada yuksaltirishdir. T. O`zbekiston, 2010, 59 b.

14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. ï T.: O`zbekiston, 2009.

15. A.F. Rasulev va boshqalar. O`zbekiston: Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish. T.: Konsauditinform. 2011.

16. A.M.Sadiqov va boshqalar. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. T.:IFRM nashriyoti 2015 y.

17. A.Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. T.: Sano-standart nashriyoti, 2014 yil.

18. [illegible] // [illegible] 8-14 [illegible], 2012 [illegible].

19. [illegible] (2013 [illegible]). – T.: Iqtisod, 2013 [illegible].

20. Michail E.Porter. The Competetive Advantage of Nations – US:Free Press, 1998.

21. Begg I., van der, Braun E. Urvan Competitiveness, Marketing and the Need for Organising Capacity // Urban Studies. 1999. Vol. 36. № 5 - 6.

22. Lever W.F. Competitive Cities in Europe // Urban Studies. 1999. Vol. 36.

23. [illegible] - [illegible] .: [illegible] "[illegible]", 2002. [illegible] 176.

24. [illegible] – [illegible], 2005. – 859 [illegible]

25. O`zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.O. Alimov, A.F. Rasulev, A.M. Qodirov va boshqalar // S.S. G`ulomov tahriri ostida. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

26. [illegible] / [illegible] – M.: [illegible], 2004.

27. [illegible] IE RAN. – [illegible], 2008. – [illegible] 10

28. [illegible] «[illegible]». // [illegible] – M.: [illegible], 2005.

29. [illegible] – [illegible] .: [illegible], 2004.

30. [illegible] -[illegible] [illegible], 2000[illegible].

31. [illegible] T.: [illegible] M [illegible] 2008

32. [illegible] 2008 [illegible] «[illegible]» [illegible] // [illegible], 2008 [illegible]., № «12.

33. Walter G. Competitiveness: a General Approach// RECEP's Reports. 2004. The Global Competitiveness Report 2009-2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009.

34. ţ Ǿŋłʣʝ ə ɸ.ʌ., ʊteʦŋʸʣʄʠʔ ɼ.Ɪ. ţ ʘʟəʠlʂʠʝ ʠʣʦəʘʯʠʦʣʦʔ ʜʝʷlʂʝʣ ʣʦŋʂʠ ʣʘʯʠʦʣʘʣ ʣʦʔ ˨ʕʦʣʦʣʒʠʕʠ ə ʧʦŋʂʕteʠʟʠŋʣ ʔ ʧʝ teʠʦʜ. / "ʕ ʕʦʣʦʣʒʠʕʘ ʠ ʷʠʣʘʣŋ ", 2011, ¯ 1. -ʉ . 8

35. ɸʙʜłʣʣʘʝə ɸ.ʄ ., ʂ łʧteʷʣʘʜʠ ʂ.ʀ . ţ ʦʣ ʠʣʦəʘʯʠʦʣʦʔ ŋʦŋʂʘəʣʷʁ ɦ ʝʔ ə ʧteʝʜʧteʠʣʠʣʒʘʂʝʣ ŋʂəʝ . // «ʕ ʕʦʣʦʣʒʠʯʝ ŋʕʦʝ əʦʟteʦʞʜʝʣʠʝ ţ ʦŋʧʠʠ». T. 2. 2012. -ŋʝ129-134.

36. http:jetro.go.jp/en /invest

37. http://info-invest.uz

38. http://mmf.uz